

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

TARIX fakulteti
UMUMIY TARIX kafedrası

Himoya qilishga ruxsat beraman

Tarix fakulteti dekani

_____ dots.G'oziyev S.H.

**XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA SAN'AT
VA MADANIYAT**

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi:

402-guruh talabasi Nishonov Jasur

Ilmiy rahbar:

o'qit. Razzoqova Go'zal

BMI Umumiy tarix kafedrası yig'ilishining qarori
bilan (qarori №10 2013 y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri v/b F.Toshboyev _____

Jizzax – 2013

**А.Қодирий номидаги ЖДПИ Тарих факультети Тарих йўналиши 402-
гуруҳ талабаси Нишонов Жасурнинг „ XX аср бошларида Хива
хонлигида санъат ва маданият” мавзусидаги Битирув малакавий ишига
ТАҚРИЗ**

Республикамиз мустақил ривожланишга илк қадам қўйган кунларданок, “Ўзбекистон халқининг муносиб турмушини, унинг ҳуқуқлари ва эркинлигини кафолатлаши, миллий анъаналар ва маданиятни қайта тикланиши, шахс сифатида инсоннинг маънавий-ахлоқий камол топишини таъминлаш”ни ўзининг кучли демократии давлат ва фуқаролик жамияти барпо этиш борасидаги пировард мақсади қилиб белгилади.

Хоразм халқлари маданияти тарихида XX аср ҳам муҳим аҳамият касб этади. Хива-тарихий қурилиш, бутунлигича бино ва иншоотлар, аслида очик ҳаводаги бутун бир шаҳар амалда тарихий ҳолида сақланиб қолган дунёнинг бир нечтагина шаҳарларидан биридир. Хива шаҳрининг монументал иншоотлари гўёки қайтадан барпо этилган шаҳарни ҳосил қилган бўлиб, у бизни бор-йўғи икки-уч авлод усталарнинг ҳаёти давомида қурилиши тезлиги билан ҳайратда қолдиради. Лекин бошқа шароитларда ҳалокатли бўладиган ҳолатлар-кичик ер бўлакларидаги тасодифий қурилишлар, ўта сиқик шароитлар ва ер камлиги бу ерда меъморчилик иншоотларининг бениҳоя гўзаллиги, нафислиги ва турли туманлигига сабаб бўлди. 402-гуруҳ битирувчи талабаси Нишонов Жасурнинг мазкур танлаган мавзуси бугунги кунда ниҳоятда қизиқарли мавзулардан бири ҳисобланади. Яъни ушбу мавзу бўйича кўпгина маълумотларга асосланиб, мавзуни тўлиқ ёритиб бера олган.

Мазкур БМИ Кириш, 2 та боб, 5 та параграф, Хулоса ва фойдаланилган адабиётлар рўйхатидан иборат.

Кириш қисмида мавзунинг долзарблиги, мақсади ҳамда мавзунинг илмий янгилиги қисқача асослаб берилган.

1-боб XX аср бошларигача бўлган даврда Хива хонлигида ижтимоий, иқтисодий ва маданият ҳаётига бағишланган бўлиб, унда тапаба асосий эътиборни Хива хонлигидаги муҳим тарихий воқеалар муҳим воқеалар,

бошқа давлатлари билан сиёсий, маданий, иқтисодий алоқаларнинг ривожланишига қаратилган. Бобнинг ёритилганлик даражаси яхши, етарли даражада асосланган.

2-бобда Хива хонлигида санъат ва маданият. Ушбу бобда Хива хонлигининг ҳаёти, анъанавий санъати ва маданияти қаратилган. Фойдаланилган адабиётлар рўйхати ва иқтибослар ўз ўрнида кўрсатилган. Ишнинг мазмунини яхши ёритиб бера олган. Талаба мавзуни мавзуни ёритишда янги педагогик технологиялар усулларида кенг фойдалана олган.

Ишни тўлиқ ўқиб чиқдим. Ишнинг сифати бугунги талабларга мос келади

Такризчи:



адишчи доц. Р. Нуржоллова

**А.Қодирий номидаги ЖДПИ Тарих факультета Тарих йўналиши 402-
гуруҳ талабаси Нишонов Жасурнинг „ XX аср бошларида Хива
хонлигида санъат ва маданият” мавзусидаги**

Битирув малакавий ишига

ТАҚРИЗ

Кўхна Хоразм азалдан илму фан бешиги, фан ва маданият, маънавият ва маърифат маркази бўлган. Мустақиллик йилларида халқимизнинг асл тарихини ёритиш борасидаги тадқиқотлар, шонли ва буюк тарихимиз ҳақида кўплаб маълумотлар бера бошлади. Бугунги кун давр талаби тарих фани олдига ҳам улкан ва янги вазифаларни қўймоқда. Ўрта Осиё халқлари тарихини чуқур ўрганишга Хива хонлиги қадимиятичи тадқиқ этиш ҳам катта аҳамиятга эга.

Президент И.А.Каримов, “Тарих ҳақиқати шуни кўрсатадики, томирида миллий ғурур, Ватан ишқи жўш урган одамгина буюк ишларга қодир бўлади. Биз шундай маънавий муҳит яратишимиз керакки, юртимизнинг ҳар бир бурчагида, барча шаҳар ва қишлоқларимиз қиёфасида ватандан фахрланиш ҳисси кўзимизни, қапбимизни яшнатиб турсин.”-деб таъкидлаган эди.

402-гуруҳ битирувчи талабаси Нишонов Жасурнинг мазкур танлаган мавзуси бугунги кунда ниҳоятда қизиқарли мавзулардан бири саналади. Яъни у Хива хонлигидаги маданий ҳаётни тўлиқ ёритиб бера олган.

Мазкур БМИ Кириш, 2 та боб, 5 та параграф, Хулоса ва фойдаланилган адабиётлар рўйхатидан иборат.

Кириш қисмида мавзунинг долзарблиги, мақсади ҳамда мавзунинг илмий янгилиги қисқача асослаб берилган.

1-боб XX аср бошларигача бўлган даврда Хива хонлигида ижтимоий, иқтисодий ва маданият ҳаётига бағишланган бўлиб, ушбу бобда талаба Хива хонлигининг ўша даврдаги ижтимоий-сиёсий ҳаётини яхши ёритиб бера олган

2-бобда XX аср бошларида Хива хонлигида санъат ва маданият. Ушбу боб Хива хонлигининг шаҳарлари ҳаёти, иқтисодий, маданий ҳаёти ва санъатини

асосий маълумотлар ёрдамида анча яхши ёзилган. Боб етарли даражада ёритилган. Иқтибослар ўз ўрнида кўрсатилган. Мазмуни қоникарли. Энг сўнгги параграфда мавзуни педагогик технологиялар асосида ўқувчиларга ўргатиш усуллари баён қилинган.

Иптни тўлиқ ўқиб чиқдим. Ишнинг сифати бугунги талабларга мос келади



KIRISH

I-BOB. XX ASR BOSHLARIGACHA BO'LGAN DAVRDA XIVA XONLIGIDA IJTIMOIIY IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

- 1.1.Xiva xonligining siyosiy tarixi va uning madaniy hayotga ta'siri
- 1.2. Xiva xonligi tarixi bo'yicha manbalar
- 1.3. XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda Xiva xonligida ijtimoiy iqtisodiy hayot

II-BOB. XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA SAN'AT VA MADANIYAT

- 2.1. XX asr boshlarida Xiva xonligida shaharlar hayoti uning san'at va madaniyat rivojida o'rni
- 2.2. XX asr boshlarida Xiva xonligida an'anaviy san'at turlari va ularning shakllanishi
- 2.3. XX asr boshlarida Xiva xonligida san'at va madaniyat mavzusini o'rganishning tajriba sinov ishi – yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o'qitish

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Mavzuning dolzarbligi. Ko'hna Xorazm azaldan ilmu irfon beshigi, fan va madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lgan. Mustaqillik yillarida xalqimizning asl tarixini yoritish borasidagi tadqiqotlar, shonli va buyuk tariximiz haqida ko'plab ma'lumotlar bera boshladi. Bugungi kun davr talabi tarix fani oldiga ham ulkan va yangi vazifalarni qo'ymoqda. O'rta Osiyo xalqlari tarixini chuqur o'rganishda Xiva xonligi qadimiyatini tadqiq etish ham katta ahamiyatga ega.

Prezident I.Karimov, "Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishq jo'sh o'rgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Biz shunday ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni yashnatib tursin."- deb ta'kidlagan edi¹. Bu tom ma'nodagi yashnab turish esa jamiyat a'zolariga haqiqiy tariximizni qay tarzda yetkaza olishimiz bilan ham bog'liq.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, har qanday yurt o'zining buyuk farzandlari, shu zaminda yashab o'tgan aziz-avliyolari bilan tabarruk va muqaddasdir. Xorazm zaminida bunday insonlar ko'p o'tganki, bunday zotlarning tabarruk nomlarini, bebaho merosi va ma'naviyat xazinasiga qo'shgan hissasini har tomonlama o'rganish, shuningdek, ularni keng ommaga tanishtirish, ularning ma'naviy qudratimiz ramzi va donishmandlik timsoli ekanligini ta'kidlash muhimdir.

Istiqlol yillarida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan noyob moddiy madaniyat namunalariga bo'lgan munosabat ham tubdan o'zgardi. Mustabid tuzum davrida tashlandiq holga kelib qolgan, toptalgan va "yo'q bo'lib ketish" holiga kelib qolgan, xalqimizning aziz avliyolari, buyuk mutafakkirlarining hoki abadiy qo'nim topgan va ming yillar mobaynida e'zozlanib kelingan muqaddas qadamjo-ziyoratgohlar ta'mirlandi, qayta tiklandi va bugun obod go'shalarga aylantirildi. Qadimiy shaharlarimizning yubiley anjumanlari, ulug' ajdodlarimizning tavallud

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 90- б.

to'ylari dunyo ilmiy jamoatchiligi ishtirokida katta tantana bilan nishonlandi. Ularning haqiqiy tarixi jahon ahliga yangi ilmiy manbalar asosida tanitildi².

Shunday noyob madaniyat namunalarini Xiva shahri ham o'z bag'rida saqlab kelmoqda Xiva — muzey-shahar, lekin Rim shahri kabi aholi yashaydigan shahardir. Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, shahar kamida 2500 yoshga kirgan. Bularning hammasi YUNESKO tashkilotiga Xivani qo'riqxonahamiatidagi shahar deb e'lon qilishga, shaharning ichki qismi bo'lgan Ichan-qal'ani esa jahon ahamiatidagi tarixiy yodgorlik deb e'tirof etishga asos bergan. «Avesto» kitobi Xorazm to'g'risida tarixiy ma'lumotlar beradi. «Tarixning otasi» deb sanalgan Gerodot Xorazm va xorazmliklar to'g'risida gapirib o'tgan edi. Beruniy esa Xorazmdagi qadimiy dehqonchilik to'g'risida hikoya qilgan.

Xorazm xalqlari madaniyati tarixida XX asr boshlari ham muhim ahamiat kasb etadi. Xiva — tarixiy qurilish, butunligicha bino va inshootlar, aslida ochiq havodagi butun bir shahar amalda tarixiy holida saqlanib qolgan dunyoning bir nechtagina shaharlaridan biridir. Xiva shahrining monumental inshootlari go'yoki qaytadan barpo etilgan shaharni hosil qilgan bo'lib, u bizni bor-yo'g'i ikki-uch avlod ustalarning hayoti davomida qurilishi tezligi bilan hayratda qoldiradi. Lekin boshqa sharoitlarda halokatli bo'ladigan holatlar — kichik yer bo'laklaridagi tasodifiy qurilishlar, o'ta siqiq sharoitlar va yer kamligi bu yerda me'morchilik inshootlarining benihoya go'zalligi, nafisligi va turli-tumanligiga sabab bo'ldi.

Sobiq Sho'ro tuzumi davrida ko'pgina tarixchilar tomonidan, O'rta Osiyo hududidagi yashagan qadimgi xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyatiga nisbatan sho'rolar davrida noxolis yondoshildi. Istiqlool yillarida ushbu fikrlarning asossiz ekanligi, bu o'lkada juda qadimdan bizning ajdodlarimiz, yashab yuksak madaniyat namunalarini yaratishganligini isbotlandi.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, ushbu mavzuni keng, har tomonlama, to'laqonli o'rganishni dolzarb vazifa deb xisoblaymiz.

² Каримов И.А.. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Т.8. — Т.: Ўзбекистон, 2000. — 331-332 б.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi, XX asr boshlarida Xiva xonligida san'at va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil qilishdan iborat. Vazifalari esa, Xorazm xalqining XX asr boshlaridagi madaniyati, xo'jaligi, turmush tarzi, jamiyatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, san'ati, moddiy madaniyati va ma'naviy hayotining asosiy xususiyatlarini, manbalar asosida aniqlash, ular haqidagi tarixiy manbalarni to'plab, mavjud ashyoviy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish. Xiva madaniyatining o'lka hunarmandchiligi, rivojiga ko'rsatgan ta'sirini o'rganish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishdan iboratdir.

Tadqiqot zahirida san'at va madaniyat va arxeologiya yodgorliklarini o'rganish yotadi. Bu esa, O'zbekiston tarixi muammolarini, ayrim jihatlarini hal qilishga yordam beradi.

Tadqiqotning obykti va predmeti. Tadqiqotning obyktini XX asr boshlarida Xiva xonligida san'at va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish tashkil etadi. Barpo qilingan madaniy yodgorliklar, san'at namunalari, hamda shu hududda aniqlangan mavjud etnografik manbalar tadqiqotni ilmiy o'rganishning asosiy predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda tarixiylik, ilmiylik, xolislik, haqqoniylik prinsiplariga amal qilingan holda umuminsoniy qadriyatlar hamda milliy g'oyadan kelib chiqqan holda yondoshiladi. Arxeologik materiallar bilan yozma manbalarni o'zaro qiyoslash asosida ilmiy xulosalar chiqariladi.

Shu bilan birga, ushbu tadqiqotni to'laqonli yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, nutqlari, maqolalarida ilgari surilgan g'oya, fikr, ko'rsatmalar asosiy dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuni o'rganilganlik darajasi. Xiva xonligidagi san'at va madaniyat tarixi bo'yicha manbalar birinchi navbatda, tarixiy hujjatlarni o'rganish natijasida to'plangan. Xiva xonlari arxivi hujjatlari Rossiya xonlikni bosib olgach, 1873-yilda Peterburgga olib ketilgan. Keyinchalik ular olimlar tomonidan topilib o'rganilgan va sharhlangan.

Arxiv hujjatlari Xiva xonligining davlat tuzumi, soliq va majburiyatlar, pul muomalasi, davlatning ma'muriy-hududiy bo'linishi, aholining xo'jalik mashg'uloti, savdo-sotiq ishlari kabi masalalar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

XVII asrda yashagan Hasanbek Rumluning «Eng go'zal tarixi» asari XVI asrning birinchi yarmidagi Xiva tarixiga bag'ishlangan. Xiva xoni, tarixchi olim Abulg'oziy Bahodirxonning (1603-1664) «Shajarayi turk» asari ayniqsa katta ahamiyatga ega asardir. Asarda juda katta tarixiy faktlar to'plangan. Asarning 1512- 1663- yillar oralig'idagi Xiva ijtimoiy-siyosiy tarixiga, Xiva - Buxoro munosabatlariga bag'ishlangan IX bobi tarix fani uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega.

Mahalliy mualliflar orasida Munis va Ogahiyning tarixiy asarlari ham tarix uchun muhim manba hisoblanadi. Munis vafot etgach, xonlik tarixini yozish ishini Ogahiy davom ettirgan. U bitgan tarixiy asar «Shohidi iqbol» deb atalib, o'zida 1872- yilgacha bo'lgan tarixni aks ettiradi.

Xudoyberdi Avaz Muhammadning 1831 - 1832- yillarda yozilgan «Dili g'aroyib» asari ham Xiva xonligi, uning shaharlari haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Xiva xonligining 1872-1911- yillardagi tarixini Xiva xoni Asfandiyorxonning topshirig'i bilan 1912- yilda Yusufbek Bayoniy yaratgan.

1725- yilda Xivaga Rossiya elchisi bo'lib kelgan Florio Benevini esdaliklarida ilmiy jihatdan muhim ma'lumotlar yozib qoldirilgan³.

1793-1794- yillarda Orenburgdan Xivaga oftolmolog vrach Blankennagel taklif etilgan. U xonning ko'zi ojiz bo'lib qolgan amakisini davolagan. U yozib qoldirgan esdalik ma'lumotlar juda qimmatli edi.

Rossiya elchisi sifatida Xiva xonligiga 1819-yilda kelgan N. I. Muravyov ham yozib qoldirgan «Esdaliklar» eng qimmatli manbalar qatorida turadi⁴. 1842- yilda

³ Безгин И.Г. Князя Бековича-Черкасского экспедиция в Хиву и посольства флота поручика Кожина и Мирзы Тевкелева в Индию к Великому Моголу (1714-1717 гг.). Библиографическая монография. СПб., 1891. 239 с.

Xiva va Rossiya o'rtasida «Majburiyatlar akti» shartnomasining imzolanishiga erishgan elchi G. Danilevskiy o'zi bilan Xivaga kelgan tabiatshunos olim R. Baziner bilan birgalikda «Xiva va xonlikning boshqa shaharlari hamda qishloqlari, savdo sotig'i va sanoati» nomli asar yozib qoldirganlar.

1858- yilda Xiva va Buxoroga yuborilgan diplomatik missiya rahbari N.Ignatyev yozib qoldirgan esdaliklar ham Xiva tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi.

Taniqli sharqshunos olim N.Vasilevskiyning «O'zbeklar Xorazmda», «Inoqlar hukmdorligi» va «Qo'ng'iro't sulolasi» asarlari Xiva xonligining XVI asr va undan keyingi asrlar tarixiga bag'ishlangan.

Bundan tashqari, Xiva bilan Rossiyaning XVIII-XIX asrlardagi o'zaro aloqalari yana bir sharqshunos olim S. Jukovskiyning «Rossiyaning keyingi 300 yilda Buxoro va Xiva bilan aloqasi» asarida o'z ifodasini topgan.

Yevropa mamlakatlari sayyohlari va olimlari yozib qoldirgan asarlar ichida ingliz savdo va diplomatiya vakili A. Jenkinsonning esdaliklari Xiva xonligining XVI asr tarixi haqida muhim ma'lumot beradi. Jenkinson esdaliklari, «Jenkinsonning Xiva va Buxoroga sayohati» deb nomlangan.

Yevropa sayyohlari ichida taniqli venger sharqshunos olimi A. Vamberi yozib qoldirgan «O'rta Osiyo bo'ylab sayohat» deb ataluvchi asar Xiva tarixi bo'yicha ham eng qimmatli manbalardan hisoblanadi. Uning esdaliklari o'zbek tilida ham chop etilgan.

O'zbekiston olimlarining Xiva xonligi tarixiga oid asarlari o'zbekiston olimlari ham Xiva xonligi tarixini o'rganish ishiga katta hissa qo'shganlar. Ular orasida akademik I. Mo'minov boshchiligida yaratilgan «Xorazmning qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan tarixi» (1976-yil) alohida qimmatga ega.

⁴ Залесов Н. Посольство в Хиву подполковника Данилевского в 1842 году //Военный сборник. Пг., 1861. № 11.С. 59.

Хива, или географическое и статистическое описание Хивинского ханства, состоящего теперь в войне с Россией, заимствованное из разных отечественных и иностранных писателей, с изображениями костюмов и вида города Хивы. М.: 1840. с. 79.

Сведения о Хивинском ханстве. Выр. из жур. "Мануфактур и торговля". 1843. Хмыр. кол. Т. 9. С. 105, 129, 130, 149."

Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства. ЗИРГО, 1851. Кн.: 5. с. 136.

Xorazmning eng qadimgi davrlaridan to hozirgi kungacha,shu jumladan, XVI-XIX asrlar birinchi yarmi tarixi haqida Xiva, shahrining 2500 yilligi yubileyi munosabati bilan chop etilgan «Xiva ming gumbaz shahri» kitobi ham tarixiy faktlarga juda boy asardir (1997-yil).

Siz bu asar bilan tanishish imkoniga egasiz. Erinmay uni bir varaqlab chiqsangiz ayni muddao bo'lur edi.

1962- yilda Xiva xonlari arxivi Toshkent shahriga olib kelingan va O'zbekiston markaziy davlat arxivida saqlanmoqda.

Ishning tarkibiy tuzilishi. Ish kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, ro'yxati hamda chizmalardan iborat.

I-BOB. XX ASR BOSHLARIGACHA BO'LGAN DAVRDA XIVA XONLIGIDA IJTIMOIIY IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

1.1. Xiva xonligining siyosiy tarixi va uning madaniy hayotga ta'siri

Xorazm hududida jami 20 ga yaqin o'zbek qabilasi istiqomat qilar edi. Ular orasida qo'ng'iro't, mang'it, nayman, qipchoq va qiyot qabilalari ko'p sonli va eng kuchli qabilalar bo'lgan. Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm temuriy Sulton Husayn Boyqaro boshliq Xuroson davlati tasarrufida edi. Xorazmda qo'ng'iro't qabilasidan chiqqan Chin So'fi hokim edi. U rasman Husayn Boyqaro noyibi hisoblanardi.

1505- yili Shayboniyxon, 1510- yilda esa Eron hukmdori shoh Ismoil Xorazmni bosib oldilar. Biroq shoh Ismoilning hukmronligi uzoqqa bormadi. Vazir shahri qozisi Umar qozi yetakchiligida safaviylar hukmronligiga qarshi harakat boshlanadi.

Xorazmning mo'tabar zotlari mamlakat taxtiga Shaybon avlodlaridan Berka Sultonning o'g'li Elbarsxonni o'tqazishga qaror qildilar. U bu davrda Dashti Qipchoqda edi. Berka Sultonning xonadoni Shayboniyxon xonadoni bilan garchand bir shajaradan bo'lsa-da, ular o'zaro dushmanlik munosabatida edilar. 1480- yilda o'zaro toj-u taxt uchun kurashda Muhammad Shayboniyxon tomonidan o'z bobokaloni Shaybonxon avlodiga mansub Berka Sultonning o'ldirilganligi buning sabablaridan bin edi⁵.

Xorazmning erksevar xalqi Elbarsxon yetakchiligida 1511—1512 yillarda Eron qo'shinlarini mamlakatdan butunlay quvib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Shu tariqa 1511-yilda Xorazm mustaqilligi tiklandi va bu davlat endi Xiva xonligi deb atala boshlandi. Bu davlat asoschisi ham shayboniylar vakillari bo'ldi. Xiva xonligida shayboniylar hukmronligi 1770- yilgacha davom etdi.

⁵ www.ziyouz.net sayti

XVII asr Xiva xonligining siyosiy hayotida o'ziga xos ikki xususiyat - bu, bir tomondan, markaziy hukmron sulola nufuzining pasayishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, qabila boshliqlari ta'sirining kuchayishi bo'ldi. Qabila boshliqlari: beklar, biylarning kuch-qudrati shu darajaga borib yetgan ediki, ular oliy hukmdorga o'z xohish-istaklarini o'tkaza olganlar. Xon davlat hayotiga oid har bir masalani ularsiz mustaqil hal eta olmas edi. Aksincha, aynan shu qabila boshliqlari xon taqdirini hal etardilar. Binobarin, Xiva xonligida davlat parokandaligi yuz berdi. Parokandalik Arab Muhammadxon davri (1602 - 1621) da yuqori nuqtasiga yetgan edi. Amudaryo o'zanining o'zgarishi bu davrda ham davom etdi. Natijada, Arab Muhammadxon xonlik poytaxtini Urganchdan Xivaga ko'chirishga majbur bo'ldi. Yuz bergan iqtisodiy tanglik davlatning siyosiy ahvoliga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqi kuchlar foydalanib qolishga urindi. Chunonchi, Arab Muhammad davrida Rossiya chegarasini qo'riqlab turgan Yoyiq kazaklari ataman Nechay, ko'p o'tmay ataman Shamay Urganchga hujum qildilar. Biroq, ular talonchilikdan iborat maqsadlarini amalga oshira olmadilar. Aksincha Xiva qo'shini ularni tor-mor etdi⁶.

1616-yili Atab Muhammadxonning o'g'illari Habash Sulton bilan Elbars Sulton nayman va uyg'ur qabilalarining boshliqlariga tayanib, otalariga qarshi isyon ko'tardilar. Ota farzandlariga yon bosdi. Ular boshqaruviga topshirilgan hududlarga Vazir shahrini ham qo'shib berdi. Biroq bu bilan nizo tugamadi. 1621-yili ular yana isyon ko'tarishdi. Bu safar otalari Arab Muhammadxon tarafida uning boshqa ikki o'g'li - Asfandiyorxon va Abulg'ozi Sulton urushda qatnashdilar. Bu urushda Habash Sulton va Elbars Sulton qo'shinlari g'olib keldi. Noqobil farzandlarning amri bilan asir olingan otaning ko'ziga mil torttirildi va Xivaga keltirib qamab qo'yildi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, xon qatl etildi.

Abulg'ozi Sulton Buxoro xoni Imomqulixon saroyida panoh topdi. Asfandiyorxon esa Hazoraspda yashirindi. Keyinchalik u Eron shohi Abbos I huzuriga yo'l oldi va uning yordamida 1623- yilda Xiva taxtini egalladi va Habash hamda Elbars qatl etildi. Bui voqeadan xabar topgan Abulg'ozi Sulton Xivaga

⁶ Хоразм тарихи. Урганч, 1997. Б. 86

qaytdi. Akasi Asfandiyorxon (1623-1643) uni Urganch hokimi etib tayinladi. Biroq tez orada aka-uka o'rtasidagi munosabatlar buzildi. Natijada, Abulg'ozi Sulton Turkiston, Toshkent, Buxoroda qochib yurishga majbur bo'ldi. Asfandiyorxon siyosatidan norozi bo'lgan turkmanlarning chaqirig'i bilan u yana Xivaga qaytib bordi. Akasi endi unga Xivani topshirishga majbur bo'ladi⁷. Biroq olti oydan so'ng Abulg'ozi Eron tasarrufiga o'tgan Niso va Darunga (Ashxobod bilan Qizil Arvat o'rtasida joylashgan manzilgoh) hujum qilinganlikda ayblanib, hibsga olinadi va Eronga, shoh Safi I (1629-1642) huzuriga o'z navkarlari qo'riqchiligida jo'natiladi. Abulg'ozi Sulton Eronda 10 yil tutqunlikda kun kechirgan (1630-1639); o'n yildan so'ng tutqunlikdan qochib, 1642- yilda Orol o'zbeklari qarorgohiga yetib keladi. Asfandiyorxon vafot etgach, 1644-» yilda Abulg'ozi Bahodirxon Xiva xonligi taxtini egallaydi. Uning yigirma yillik xonlik davri jang-u jadallar bilan kechdi. Buxono xoni qo'shinlari bilan bir necha marta to'qnashdi.

Inoqlar Abulg'ozi qabila boshliqlari nufuzini oshirishi bilan ularning markaziy hokimiyatga qarshi xatti-harakatlariga barham bermoqchi bo'ldi. U xonlikdagi barcha qabilalarni to'rt guruhga bo'ldi: qiyofa qo'ng'irot, uyg'urnayman, qang'il-qipchoq, nukuz-mang'it. Bunda qabilalarning urf-odatlarini, turmush tarzi va qarindoshlik aloqalari hamda joylashgan yeri hisobga olindi. Har bir qabilaviy guruhlar inoq tayinlanib, xon shu inoq orqali qabilaga tegishli masalalarni hal qilgan. Inoqlar xonning eng yaqin maslahatchisi sifatida saroyda istiqomat qilganlar.

Abulg'ozi Bahodirxon Buxoro xoni bilan 1662- yilda sulh tuzib, 1663- yilda hokimiyatni o'g'li Anushaxonga topshiradi. Anushaxon davrida Buxoro - Xiva munosabatlari yanada keskinlashdi. Anushaxon bir necha marta Buxoro xonligini xonavayronlikka olib kelgan harbiy yurishlar uyushtirdi. Uning qo'shini hatto Buxoroga yetib bordi, Samarqandni egalladi. Nihoyat, 1685- yilda G'ijduvon yaqinidagi jangda Xiva qo'shinlari tor-mor etildi. Oxir-oqibatda, Buxoro xoni

⁷ Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи тарокима. – Тошкент: Чўлпон, 1995, – Б. 48.

Subhonqulixon Anushaxonga qarshi Xivaga fitna uyushtirdi. 1687- yilda Anushaxon taxtdan tushirilib, ko'ziga mil torttirildi.

Subhonqulixon Xivada o'z tarafdorlaridan shunday fitnachi guruh uyushtira olgan ediki, ular ta'sirida XVI asr oxiri XVII asr boshlarida Xivada «xonlar o'yini» - o'nlab xonlar almashinuvi sodir bo'ldi⁸. Bu voqealar oqibatida Xiva xonligining siyosiy hayoti yanada murakkablashdi, xonlik ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar girdobida qoldi. Xiva xoni Sherg'ozixon (1714-1728) davrida Buxoro xoni Abulfayzxon orolliklarni Xiva xoniga qarshi gijgijlay boshladi. Natijada, Orolbo'yi aholisi Xiva xonligidan ajralib chiqdilar. Xiva xonligida boshlangan o'zaro kurash goh u tomon, goh bu tomonning ustunligi bilan to Sherg'ozixon vafot etguniga qadar davom etdi.

Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi

Xiva xonligidagi siyosiy vaziyat hukmron tabaqalarning urushlari va qabilalar o'rtasidagi mojarolarni to'xtatishga qodir bo'lgan kuchli markaziy hokimiyatning barpo etilishini taqozo etardi. Bunday hokimiyatni barpo etishga qodir kuch sifatida maydonga o'zbeklarning qo'ng'irot qabilasi chiqdi. Bu zaruriyatning natijasi o'laroq, XVIII asrning 60- yillaridan boshlab, Xiva xonligida hokimiyatni qo'ng'irot qabilasi boshliqlari asta-sekin o'z qo'llariga ola boshladilar.

Yirik zodagonlar va ruhoniylar tabaqasining madadiga tayangan qo'ng'irot qabilasining yo'l boshchisi Muhammad Amin 1761-yilda inoqlik lavozimiga ko'tarilgan. U turkmanlarning yovmut va chovduz qabilalariga qarshi kurash olib borgan⁹. Biroq u dastlab muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Buxoroga - Doniyolbiy otaliq yoniga ketadi. Turkman qabilalari Xorazmni egallab, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Kat, Shohobod shaharlarini xonavayron qiladilar. Ocharchilik va vabo tarqalib, o'zbeklar Orol va Buxoroga ketishga majbur bo'ladilar. 1770- yilda

⁸ Матякубова М. Хива хонлиги тарихи манбалари (Муҳаммадризо Огаҳийнинг тарихий асарларини кодикологик хусусиятлари). Урганч, 2006. Б. 47

⁹ www.history.ru sayti

Muhammad Amin inoq Buxorodan qaytib kelib, yovmutlarga qarshi kurashni uyushtiradi va ularni Xorazmdan haydab chiqaradi.

Muhammad Amin mahalliy beklarni ham bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. U xon avlodidan bo'lmagani sababli taxtga Abulfayzxonning o'g'li Bo'lakayxonni nomiga, qo'g'irchoq xon sifatida o'tqazadi. Hokimiyatni esa o'zi boshqaradi. 1782- yilda Buxoro amirligi qo'shinlarining hujumini qaytarib, Xiva xonligi mustaqilligini saqlab qoladi. Xiva xonligini boshqargan Muhammad Amin 1 inoq 20 yil davomida 13 marta soxta xonlarni almashtirgan¹⁰.

Hukmronligining so'nggi yillarida o'z qabilasining faol qatlamiga, savdogarlar va ruhoniylar madadiga tayangan hamda turli turkman qabilalari o'rtasidagi o'zaro nizolardan oqilona foydalana olgan Muhammad Amin mamlakatda nisbatan siyosiy osoyishtalik vaziyatini yaratishga erishdi. Bularning barchasi mamlakat iqtisodining ko'tarilishini ta'minlaydi. Jon saqlash uchun o'zga yurtlarga qochib ketgan fuqarolar yana qaytib kela boshladilar. Avaz Muhammad inoq davrida Xiva xonligi iqtisodiy jihatdan ancha mustahkamlandi.

Muhammad Amin ham, uning o'g'li Avaz (1790-1804) ham davlat hokimiyatini inoq unvonida boshqarganlar. Qozoqchingiz biylaridan soxta xonlar chaqirilib turilgan. Hokimiyat amalda inoq va maxsus kengash tomonidan boshqarilgan. Kengash tarkibiga qo'shbegi, mehnat, vazir va otaliqlar kirgan. Inoq va kengash soxta xon nomidan ish yuritgan.

Faqat Avazning o'g'li Eltuzar (1804-1806) hukmronligi davrida chetdan soxta xon chaqirish to'xtatildi. Nafaqat to'xtatildi, ayni paytda 1804- yildayoq chetdan chaqirilgan soxta xon Abulg'ozini taxtdan tushirib, o'zini xon deb e'lon qildi. Shu tariqa, qo'ng'irotlar sulolasi Xiva xonligi taxtini rasman egalladi. Bu sulola 1920-yilga qadar Xiva xonligini idora qildi.

Eltuzarxon xonlikda markazlashgan davlat siyosati yuritish uchun harakat qiladi. 1804- yilda Eltuzarxon Buxoroga yurish qildi. 1806-yilda Amudaryo

¹⁰ Xorazm tarixi. Urganch . 2004.B.86

bo'yida bo'lgan hal qiluvchi jangda Xiva qo'shinlari tor-mor etildi, Eltuzarxon ham halok bo'ldi.

Eltuzarxon vafot etgach taxtga uning ukasi Muhammad Rahim I o'tirdi. Muhammad Rahim I Xiva xonligini siyosiy jihatdan birlashtirishga kirishdi.

Ayni paytda turkmanlarni bo'ysundirish masalasi yetakchi o'ringa chiqdi. Turkmanlarning turli qabilalari qanchalik qattiq qarshilik ko'rsatmasinlar, birin-ketin bo'ysundirilib borildi.

Bo'ysunishni istamagan yovmut qabilasi Xurosonga ko'chib ketdi. Biroq, Eron hukumatining tazyiqi ostida, shuningdek, yaylov maydoni topilmaganligi uchun yana Xiva xonligi hududiga qaytib keldi. Endi ular Xiva xoni tomonidan ajratib berilgan hududga joylashishga majbur bo'ldilar. Shu davrdan boshlab yovmut qabilasining taqdiri Xiva xonligi bilan uzil-kesil bog'landi va ular xonlik fuqarolari tarkibiga olindi. Ularga ham soliq to'lash belgilandi. Shuningdek, xon qo'shiniga belgilangan miqdorda navkar yuborish majburiyati ham yuklandi.

Uzoq davom etgan urushlar va yillab sarson-sargardonlikda yurish yovmutlarni qishloq xo'jaligidan ancha uzoqlashtirib qo'ygan edi. Shu tufayli ular xon qo'shinida sidqidildan xizmat qildilar. Ulardan o'z zamonasining eng jangovar otliq harbiy qism tuzilganligi ham bejiz bo'lmagan.

Muhammad Rahimxon I o'zbeklar va turkmanlardan tuzilgan qo'shinga tayanib yirik zodagonlar qarshiligini sindirish uchun shiddatli kurash olib bordi. Bu kurashda o'z raqiblarini birin-ketin bo'ysundira bordi.

Muhammad Rahim I ga dushmanlik ruhidagi Orolbo'yi zodagonlari guruhi qattiq qarshilik ko'rsatdi. 1811 - yilda uning ham qarshiligi sindirildi. Qo'ng'iro't shahri yakson qilindi. Xiva xoni mustaqil bo'lib ajralib chiqqan qoraqalpoqlarni bo'ysundirishga kirishdi. Qoraqalpoqlar Buxoro amiri Haydardan yordam olishga harakat qildilar. Biroq, bunga erisha olmagach, Xiva xonligiga bo'ysunishga majbur bo'ldilar.

1812-1820- yillar oralig'ida qozoqlarning Kichik juz xonligi hududiga 2 marta hujum uyushtirildi. Buning oqibatida, xonlik hududlarining yanada kengayishiga erishildi.

1813- yilda Shimoliy Xurosonda joylashgan turkmanlarning takya qabilasi Xiva xonligiga qaramligini tan olishga va belgilangan hajmda soliq to'lab turishga majbur etildi.

1822- yilda esa Marv shahri xonlikka qo'shib olindi. 1824yilda Yangi Marv shahri bunyod etildi.

Muhammad Rahimxon I bo'ysundirilgan qabilalar zodagonlarining qabila orasidagi mavqeyi nihoyatda qudratli bo'lganligini hisobga olib, Ularga u yer-mulk va turli imtiyozlar in'om etgan. Bu omil xonlikda siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi kerak edi¹¹.

Muhammad Rahimxon I davrida xonlik siyosiy jihatdan birlashtirildi. Ayni paytda mamlakatda nisbiy barqarorlik ta'minlandi. Uning hududlari yanada kengaydi.

Xiva xonlari Olloqulixon (1825-1842) va Muhammad Amirxon (1846-1853) davrida ham o'zaro urushlar to'xtamadi. Olloqulixon Buxoroga 7 marta, Xurosonga 5 marta yurish qilgan bo'lsa, Muhammad Aminxon Marvga 10 marta yurish qiladi. o'nlab shahar va qishloqlar talanadi. Zulm, talonchilik davom etdi. Xalq turmushi og'irlashib bordi.

¹¹ www.wikepediya.com sayti

1.2. Xiva xonligi tarixi bo'yicha manbalar

Xiva xonligi tarixi bo'yicha manbalar birinchi navbatda, tarixiy hujjatlarni o'rganish natijasida to'plangan. Arxiv hujjatlari bugungi avlodni o'tmish tarixi bilan tanishtirishda beqiyos ahamiyatga ega. Olimlar u manbalarni o'rganadilar, sharhlaydilar va shu orqali o'tmish tarixini tiklaydilar. Xiva xonlari arxivi hujjatlari Rossiya xonlikni bosib olgach, 1873- yilda Peterburgga olib ketilgan. Keyinchalik ular olimlar tomonidan topilib o'rganilgan va sharhlangan.

Arxiv hujjatlari Xiva xonligining davlat tuzumi, soliq va majburiyatlar, pul muomalasi, davlatning ma'muriy-hududiy bo'linishi, aholining xo'jalik mashg'uloti, savdo-sotiq ishlari kabi masalalar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

XVII asrda yashagan Hasanbek Rumluning «Eng go'zal tarixi» asari XVI asrning birinchi yarmidagi Xiva tarixiga bag'ishlangan. Xiva xoni, tarixchi olim Abulg'oziy Bahodirxonning (1603-1664) «Shajarayi turk» asari ayniqsa katta ahamiyatga ega asardir¹². Asarda juda katta tarixiy faktlar to'plangan. Asar turkiy qabilalar shajarasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Shuningdek, kitobxonni Xiva va xivaliklar, shuningdek, Abulg'oziyning ham o'zaro urushlar oqibatida parchalanib ketgan davlatni birlashtirish yo'lida olib borgan shiddatli kurashi bilan ham tanishtiradi. Asarning 1512- 1663- yillar oralig'idagi Xiva ijtimoiy-siyosiy tarixiga, Xiva - Buxoro munosabatlariga bag'ishlangan IX bobi tarix fani uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega.

Mahalliy mualliflar orasida Munis va Ogahiytlarning tarixiy asarlari ham tarix uchun muhim manba hisoblanadi. Munisning «Firdavsul iqbol» deb ataluvchi tarixiy asari 1806- yilda Eltuzarxonning topshirig'i bilan yozilgan. Asar Xivaning XVI asrdan 1812 yilgacha bo'lgan tarixini qamrab olgan.

¹² Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи тарокима. – Тошкент: Чўлпон, 1995.

Munis vafot etgach, xonlik tarixini yozish ishini Ogahiy davom ettirgan. U bitgan tarixiy asar «Shohidi iqbol» deb atalib, o'zida 1872- yilgacha bo'lgan tarixni aks ettiradi.

Xudoyberdi Avaz Muhammadning 1831 - 1832- yillarda yozilgan «Dili g'aroyib» asari ham Xiva xonligi, uning shaharlari haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Xiva xonligining 1872-1911- yillardagi tarixini Xiva xoni Asfandiyorxonning topshirig'i bilan 1912- yilda Yusufbek Bayoniy yaratgan.

Xiva tarixi bo'yicha rossiyalik mualliflarning asarlari. 1725- yilda Xivaga Rossiya elchisi bo'lib kelgan Florio Benevini esdaliklarida ilmiy jihatdan muhim ma'lumotlar yozib qoldirilgan. 1793-1794- yillarda Orenburgdan Xivaga oftolmolog vrach Blankennagel taklif etilgan. U xonning ko'zi ojiz bo'lib qolgan amakisini davolagan. U yozib qoldirgan esdalik ma'lumotlar juda qimmatli edi.

Rossiya elchisi sifatida Xiva xonligiga 1819-yilda kelgan N. I. Muravyov ham yozib qoldirgan esdaliklar eng qimmatli manbalar qatorida turadi. «Esdaliklar» Xiva to'g'risida, qadimiy obidalar, davlat boshqaruvi tizimi, hunarmandchilik va savdo-sotiq to'g'risida batafsil ma'lumotlardan iborat. Shuning uchun ham bu kitob fransuz va nemis tillariga ham tarjima qilingan edi. Muallif asarida o'zbek xalqiga xos xususiyatlar haqida to'xtalib, o'zbeklarni «aql-idrokli, suhbatlari yoqimli va o'tkir, qat'iyatli, matonatli, urf-odati oddiy, yolg'on va aldovdan nafratlanuvchi, harbiy ishda hormay-tolmaydigan mard va jasur kishilar», deb ta'riflagan ham edi. N. I. Muravyov o'z fikrini davom ettirib, yana quyidagilarni qayd etgan¹³: «Xiva shahri keng maydonda bog'-rog' bilan o'ralgan. Atrofi esa devor bilan o'ralgan hamda Amudaryodan suv quvuri o'tkazilgan. Xiva aholisi o'zining mashaqqatli mehnati bilan cho'l-u biyobonni hosildor o'lkaga aylantirgan. Atrof hammasi ekinzor maydon. Bug'doyzor, sholipoya, uzumzorva shirin-shakar bog', Chorvachilik ham rivojlangan».

¹³ Сведения о Хивинском ханстве. Выр. из жур. "Мануфактур и торговля". 1843. Хмыр. кол. Т. 9. С. 105, 129, 130, 149."

Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства. ЗИРГО, 1851. Кн.: 5. с. 136.

1842- yilda Xiva va Rossiya o'rtasida «Majburiyatlar akti» shartnomasining imzolanishiga erishgan elchi G. Danilevskiy o'zi bilan Xivaga kelgan tabiatshunos olim R. Baziner bilan birgalikda «Xiva va xonlikning boshqa shaharlari hamda qishloqlari, savdosotig'i va sanoati» nomli asar yozib qoldirganlar.

1858- yilda Xiva va Buxoroga yuborilgan diplomatik missiya rahbari N.Ignatyev yozib qoldirgan esdaliklar ham Xiva tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi¹⁴.

Taniqli sharqshunos olim N. Vasilevskiyning «O'zbeklar Xorazmda», «Inoqlar hukmdorligi» va «Qo'ng'iro't sulolasi» asarlari Xiva xonligining XVI asr va undan keyingi asrlar tarixiga bag'ishlangan.

Bundan tashqari, Xiva bilan Rossiyaning XVIII-XIX asrlardagi o'zaro aloqalari yana bir sharqshunos olim S. Jukovskiyning «Rossiyaning keyingi 300 yilda Buxoro va Xiva bilan aloqasi» asarida o'z ifodasini topgan. Yevropa sayyohlari va olimlari yozib qoldirgan manbalar. Yevropa mamlakatlari sayyohlari va olimlari yozib qoldirgan asarlar ichida ingliz savdo va diplomatiya vakili A. Jenkinsonning esdaliklari Xiva xonligining XVI asr tarixi haqida muhim ma'lumot beradi. Jenkinson esdaliklari, «Jenkinsonning Xiva va Buxoroga sayohati» deb nomlangan. Yevropa sayyohlari ichida taniqli venger sharqshunos olimi A. Vamberi yozib qoldirgan «O'rta Osiyo bo'ylab sayohat» deb ataluvchi asar Xiva tarixi bo'yicha ham eng qimmatli manbalardan hisoblanadi. Uning esdaliklari o'zbek tilida ham chop etilgan.

O'zbekiston olimlarining Xiva xonligi tarixiga oid asarlari o'zbekiston olimlari ham Xiva xonligi tarixini o'rganish ishiga katta hissa qo'shganlar. Ular orasida akademik I. Mo'minov boshchiligida yaratilgan «Xorazmning qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan tarixi» (1976-yil) alohida qimmatga ega.

Xorazmning eng qadimgi davrlaridan to hozirgi kungacha, shu jumladan, XVI-XIX asrlar birinchi yarmi tarixi haqida Xiva, shahrining 2500 yilligi yubileyi

¹⁴Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства. ЗИРГО, 1851. Кн.: 5. с. 136.

munosabati bilan chop etilgan «Xiva ming gumbaz shahri» kitobi ham tarixiy faktlarga iuda boy asardir (1997-yil).

Siz bu asar bilan tanishish imkoniga egasiz. Erinmay uni bir varaqlab chiqsangiz ayni muddao bo'lur edi. 1962- yilda Xiva xonlari arxivi Toshkent shahriga olib kelingan va O'zbekiston markaziy davlat arxivida saqlanmoqda.

Muhammadrizo Ogahiyning tarixga oid Riyoz ud-davla» (1825-1842 yil voqealari), Zubdat ut-tavorix» (1843-1846 yil voqealari), «Jome' ul-voqyeoti sultoni» (1846-1855 yil voqealari), «Gulshani davlat» (1856-1865 yil voqealari), «Shohidi iqbol» (1866-1872 yil voqealari) asarlari xonlik tarixi bo'yicha asosiy manbalardir. Munis va Ogahiyning tarixiy asarlarini o'rganish va ommalashtirish borasida shu paytgacha talaygina ilmiy tadqiqot ishlari qilingan. O'zbek tarixchilari bilan bir qatorda rus sharqshunoslari ham Munis va Ogahiy tarixiy asarlarini o'rganib, o'zlarining ijobiy fikrlarini bildirib o'tganlar, shu o'rinda V.V.Bartoldning fikrlarini keltirib o'tish mumkin. V.V.Bartold Munis va Ogahiyning tarixiy asarlariga bunday baho beradi: «Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlar qanchalik kamchilikka ega bo'lmasin, tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko'pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixi bo'yicha yozilgan hamma asarlarni ancha orqada qoldiradi».

Bu qimmatli qo'lyozma manbalardan biri «Riyoz ud-davla» asari bo'lib, u 1825 yildan 1842 yilgacha Xorazmda bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Bu asar Ogahiy tarafidan 1260-1844 yilda yozilgan. Ogahiy bu asarni yozishda o'sha davr tarixchilarining an'anasiga muvofiq hamd va na't bilan boshlaydi. Dastlab o'z hayoti haqida qisqacha gapirib, Xiva xoni Olloqulixonga maqtovlar bag'ishlaydi. Undan so'ng tarix ilmiga ta'rif berib, bu asarning yozilishiga sababchi bo'lgan shaxslar haqida gapiradi. So'ngra Olloqulixonning tug'ilishidan boshlab, to vafotigacha Xorazmda bo'lgan tarixiy voqealarni bayon etadi.

Asar orqali Ogahiyning hayot yo'li va ijodiy faoliyatini ham o'rganish mumkin. Bu asarning bir necha nusxasi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida, shuningdek bir necha

nusxasi O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondidagi 821/II raqamlik nusxa yaxshi saqlagan bo'lib, nasta'liq xatida, qora siyoh bilan ko'chirilgan. Matn 25 satrdan iborat. Boblar nomlari va ajratilgan so'zlar qizil siyohda o'sha davr ananasiga xos ravishda kitobat qilingan. Asar 1298/1880-81 yili ko'chirilib, 117 varaqdan iborat, o'lchovi 26,5x43,5 sm. Kotibi Mulla Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devon. 5364/II raqamli mazkur asarning nusxasi ham yaxshi nasta'liq xatida ko'chirilgan. Qora siyohda Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan, matni 25 satrdan iborat. Boblar nomi va ajratilgan so'zlar qizil siyohda berilgan. Kotibi Mulla Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devon. Biroq 345 varaqdan boshlab xat biroz o'zgargan, bundan asarning davomini boshqa kotib ko'chirgan degan xulosaga kelish mumkin. Qo'lyozma Muhammad Rahimxon II Feruz buyrug'iga ko'ra 244 varaqda ko'rsatilishicha 5 rajab 1321-1904 yil 27 sentyabrda ko'chirilgan. Jami 120 varaqdan iborat. O'lchovi 29,5x43,5 sm¹⁵.

Mazkur asarning yana ikki nusxasi Rossiya FA Qo'lyozmalar instituti fondida № Ye6 va D 123 (590) raqamlari ostida saqlanadi. Ulardan birinchisi 113 varaq, o'lchovi 27x48 sm, ikkinchisi 256 varaq, o'lchovi esa 21x33 sm. dan iborat. Ikkovi ham nasta'liq xatida yozilgan.

XIX asr Xorazm tarixiga oid asosiy qo'lyozma manbalardan yana biri 1262 (1845-1846) yili Ogahiy tarafidan yozilgan «Zubdat ut-tavorix» nomli asardir. Bu asar «Riyo'z ud-davla» asaridan keyingi davrni, ya'ni 1843 yildan 1846 yilgacha Xorazmda bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida bu asarning ikki to'liq nusxasi saqlanmoqda. Bu asarning 821/11 raqamli nusxasi yaxshi nasta'liq xatida qora siyoh bilan qo'qon qog'oziga yozilgan. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. «Zubdat ut-tavorix» tarixiy asar bo'lsa-da, yuksak badiiy mahorat bilan yozilganligining guvohi bo'lish mumkin.

¹⁵ O'zbekistonning yangi tarixi. II-kitob.T.2000. B.48

Asarning avvali: «Siposi vofir tuhfası ul sultoni azamat nishon ostonig'a nisordurkim...», so'zlari bilan boshlanib, oxiri: ... «Donish ahlining xotiri xatirlariga ma'lum bo'lsinkim, bu muxtasarning (Zubdat ut-tavorix) ta'lifi (Rahimqulixonning) vafotidan so'ng sanai hijriya 1262 yilda ilon yili rabi ul-avval oyining to'rtida, dushanba kuni [1845 2 mart] ixtimom topdi. Sahvu xato va nuqsonin ayb qilmay ma'zur tutsinlar, balki lutf va karam ko'rguzib, isloh bersinlar... Tammat ul-kitob sanai 1279 /1879-80. Roqimi in kitob Mulla Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devon marhumiy» so'zlari bilan tamom bo'ladi. Asar 50 varaqdan (386b-435a) iborat. Asarning 821/ II raqamli nusxasi ham nasta'liq xatida yozilgan bo'lib 50 varaqdan iborat. O'lchovi 27x44 sm. Mulla Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devoni tomonidan qo'lyozma Muhammad Rahimxon II Feruz buyrug'iga ko'ra 1279/1879-80 yili saroy kutubxonasi uchun ko'chirilgan¹⁶.

Ogahiy bu asarning avvalida «Riyoz ud-davla» asarini tugatib, Rahimqulixonning oldiga olib borganligi va o'zining «Zubdat ut-tavorix» nomli asarini yozishga kirishgani haqida gapiradi. Ogahiy bu asarni ikki qismga bo'lgan. Birinchi qismida Rahimqulixonning tug'ilishidan to xonlik taxtiga chiqquncha bo'lgan voqealar bayoni berilgan. Ikkinchi qismida esa Rahimqulixonning xonlik taxtiga chiqqandan so'ng to vafotigacha bo'lgan voqealar haqida yozgan.

Rossiya FA Qo'lyozma instituti fondida Ye6 raqami bilan mazkur asarning nusxasi saqlanadi. Asar nasta'liq xati bilan qora siyohda ko'chirilgan. Matn qizil rangdagi ramkaga olingan. Ammo asarning kotibi noma'lum. 1273/1856-1857 yili ko'chirilganligi aniq. Hajmi 52 varaq, o'lchovi esa 27x48 sm. Bu nusxa Xorazm hukmdorlarining saroy kutubxonasidan olib ketilgan.

Ogahiyning yana bir asari 1846 yildan 1855 yilgacha Xorazmda bo'lgan tarixiy voqealarni bayon etuvchi «Jome' ul-voqyeoti sultoni» nomli asaridir. Ogahiy uning yozilishi haqida asar muqaddimasida quyidagilarni yozib qoldirgan: «Bu kitobning yozuvchisi Erniyozbekning o'g'li Muhammadrizo mirob, taxallusim

¹⁶ Атоқли шоир, тарихнавис, таржимон. Т.: Абдулла Қодирий, 1999. – Б.126

Ogahiy quyidagilarni bayon etaman. Muhammadaminxon davlat tepasiga kelgan vaqtda Rahimqulixonning Xorazmda hukmronlik qilgan vaqtidagi bo'lgan tarixiy voqealarni yozar edim. Uni tezlik bilan tamom etib, Muhammadaminxonga taqdim etdim. So'ngra bu kitobimni yozishga boshladim va uni «Jome' ul-voqyeoti sultoni» deb atadim». Asarning xon kutubxonasida saqlangan ikkita qo'lyozma nusxasidan biri hozirda O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida, ikkinchisi esa Sankt-Peterburgda saqlanadi¹⁷.

O'zbekistan FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan asarning bir nusxasi o'rtacha nasta'liq xati bilan qora siyohda qo'qon qog'oziga yozilgan, har bir beti 17 qatordan iborat. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. Ba'zi bir betlar hoshiyasiga har xil to'ldirishlar kiritilgan. Ko'p joylarda esa noaniq va xato yozilgan so'zlar o'chirilib, to'g'rilab yozilgan. 204 betining yarmi va 204 b betlari bo'sh qolgan, hech narsa yozilmagan. Bu asarni Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida saqlanayotgan nusxasi bilan solishtirib ko'rilganda mazmun jihatdan ikkalasi bir xil bo'lib chiqqan.

Qo'lyozmada ko'chiruvchining nomi va ko'chirilgan yili ko'rsatilmagan. Asarning hajmi 310 varaqdan iborat bo'lib, o'lchovi 15 x 25,5 sm. Xati va qog'oziga qaraganda asar XIX asrning ikkinchi yarmida ko'chirilgan. Tadqiqot jarayonida bu nusxaning yaxshi saqlanmaganligi ma'lum bo'ldi.

«Jome' ul-voqyeoti sultoni» asarining yana bir nusxasi Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida saqlanmoqda. Bu nusxa ham qora siyoh va nasta'liq xati bilan qo'qon qog'oziga yozilgan. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. Matn qizil siyohli ramka ichiga olingan. 6 jildi ichidan joy olgan nusxasi esa jami 82 varaqdan iborat bo'lib, o'lchovi 27x48 sm. Kotib Usta Qilich zargardir. Bu nusxaning oxirida Ogahiy tomonidan yozilgan Abdullaxon va Qutlug'murodxonlar davridagi voqealarni bayon etuvchi qism ham bor¹⁸.

«Gulshani davlat» Ogahiyning Xorazm tarixiga bag'ishlagan to'rtinchi asaridir. Mazkur asarda 1856 yildan 1865 yilgacha bo'lgan voqealar o'z aksini

¹⁷ All rights reserved. Copyright © 2013 kitob.uz Tuzuvchi: Muslim1024@gmail.com & Sharaf Plus

¹⁸ Огаҳий. Гулшани давлат. // Қўлёзма. ЎзФА ШИ. – № 7572. – Б. 54-55.

topgan. Asarning hozirda uchta qo'lyozmasi mavjud, bir nusxasi O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida, ikkita nusxasi Sankt-Peterburgda saqlanadi. Yozilish tarixi haqida muqaddimada quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: «Bu kitob o'quvchilarga va mutolaa etuvchilarga ma'lum bo'lsinki, men Erniyozbekning o'g'li Muhammadrizo mirob laqabim Ogahiy ko'p vaqtlardan beri Xorazm tarixini yozish bilan o'z qatorlarim ichida xursand edim. Sayyid Muhammadxon davrida bu asarimni yozishga boshladim va uni «Gulshani davlat» nomi bilan atadim».

Mazkur asarning bir nusxasi O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi nasta'liq xati bilan qo'qon qog'oziga qora siyoxda ko'chirilgan bo'lib, sarlavhalari esa qizil siyohda yozilgan. Matni 25 satrdan iborat. Nusxa 1903 yili ko'chirilgan bo'lib, 280 varaqdan iborat.

Ogahiyning mazkur asaridan ikki nusxa Rossiya FA Qo'lyozma instituti xazinasida Ye6-VIII va 1891 (Nov 215) raqamlar bilan saqlanadi. Birinchi nusxa nasta'liq xati bilan qora siyohda ko'chirilgan, boblar nomi qizil siyohda, matn ham qizil ramka ichiga olingan. Ushbu nusxa 78 varaqdan iborat (majmuadagi 525b-602a varaqlar). O'lchovi 27x48 sm. bo'lib, ko'chirilgan vaqti aniq emas. Saroyi kutubxonasidagi mazkur nusxa 1873 yili A.Kun tamonidan qo'lga kiritilgan va 1890 yili Osiyo Muzeyiga sotilgan.

Ikkinchi 1891 (Nov 215) raqamli nusxa ham nastaliq xatida, qora siyoh bilan rangli rus fabrika qog'oziga ko'chirilgan. Boblar nomi qizil siyohda, muqovasi esa qora charmdan ishlanganligi bilan Xorazm muqovasozligiga xosligi ko'rinadi. Nusxani 1324/1906-07 yili Muhammad Rahimxo'ja valadi Domulla Ibrohimxo'ja Xorazmiy ko'chirgan. Hajmi 280 varaq bo'lib, o'lchovi esa 12,5x20 sm. Mazkur nusxaning Xivadan A.N.Samoylovich Rossiyaga 1908 yili olib ketilgan¹⁹.

Ogahiyning Xorazm tarixiga oid asarlaridan oxirgisi 1865 yildan 1872 yilgacha Xorazmda bo'lgan voqealarni bayon etuvchi «Shohid ul-iqbol» nomli asaridir. Bu asarning dunyoda yagona nusxasi Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida saqlanmoqda. Bu nusxa

¹⁹ Матякубова М. Хива хонлиги тарихи манбалари (Муҳаммадризо Огаҳийнинг тарихий асарларини кодикологик хусусиятлари). Урганч, 2006. Б. 36

qora siyohda nasta'liq xati bilan qo'qon qog'oziga yozilgan. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. Har bir beti 15 qatordan iborat. Muqovasi qizil charmdan ishlangan. Asarda ko'chiruvchining ismi va ko'chirilgan yili ko'rsatilmaganligi sabab kotibi noma'lum. Asar 1872 yilgi voqealarni bayoni bilan tugagan. Asar 277 varaqdan iborat bo'lib, o'lchovi 14x26 sm. Ogahiy ushbu asarining muqaddimasida quyidagilarni yozadi: «Men, Muhammadrizo laqabim Ogahiy yoshligimdan to shu vaqtgacha Xorazmda yashadim. Bu yerda hukmronlik qilgan podshohlarning tarixlarini yozdim. Muhammad Rahimxon II vaqtida bu asarni yozishga boshladim va unga «Shohid ul-iqbol» deb nom qo'ydim». «Shohid ul-iqbol» asarini Ogahiy Muhammad Rahimxon II davriga atab yozishga kirishgani. Bizga ma'lumki, mazkur asarning yagona nusxasi 1873 yili saroy talon-toroji vaqtida Sankt-Peterburgga olib ketilgan. Munis va Ogahiylar tomonidan yaratilgan asarlar Xorazm tarixi va madaniyatini o'rganishda birlamchi manba bo'lib shu bilan birga Xivadagi kitob va kitobat, biblio-psixologiya masalalarni o'rganishda, xonlik kutubxonasi tarkibini aniqlashda ham yaqindan yordam beradi.

1.3. Xiva xonligida ijtimoiy iqtisodiy hayot

Xonliklardagi sotsial-iqtisodiy va madaniy hayot masalasi juda murakkab bo'lgan. Xiva xonligiga asos solgan paytda xonlik aholisi 900 ming kishini tashkil etgan. Aholining yarmi ko'chmanchi edi. Xonlikdagi aholining 65 foizini o'zbeklar, 26 foizini turkmanlar, qolgan qismini esa qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqalar tashkil qilgan. Xonlik hududida 20 dan ortiq o'zbek qabilalari bo'lib ular qiyot, qo'ng'iroq, nukus, mang'it, uyg'ur, nayman, qipchoq va boshqa qabilalar edi. O'zbeklar asosan o'troq hayot kechirib, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Xiva xonligidagi aholi etnik va til jihatdan bir-biridan farq qiladigan quyidagi to'rtta guruhga bo'lingan bo'lgan¹.

1. Til jihatdan turkiylashgan qadimgi Xorazmliklarning avlodlari, bular ko'p chetdan turli sabablarga ko'ra kelib qolgan guruhlarini o'ziga singdirishga erishgan. Bularni kasbu-korlari dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bo'lgan.

2. Xonlikning g'arb va janubiy tomonlarida turkman qabilalari joylashgan. Ular o'troq hayot kechirsalarda, asosan kasbi chorvachilik bo'lib, ular yer-mulkalaridan oladigan umumiy daromadning 10g'1 qismi miqdorda soliq to'lashgan (xonga). Bundan tashqari ularning adoqli, xizir eli qabilalari xonni navkarlar bilan ta'min etib turgan.

3. Elbarsxon Xorazmga xon bo'lib kelganda u bilan birga Dashtu qipchoqdan o'zbeklar kelgan. Ular yarmi ko'chmanchi hayot tarziga ega bo'lib, to'rtta guruhga bo'lingan: Qiyot-qo'ng'iroq, Uyg'un-nayman, Qongli-qipchoq hamda Nukuz-mang'it.

4. Hukmron tabaqalar, ya'ni “oq suyaklar” bo'lib, ularning qo'lida juda katta boylik va qullar bo'lgan (qullar bular asirga Eron va Rossiyadan tushgan odamlar).

Xiva xonligida (XVI asr) boshqaruv tizimi juda murakkab bo'lib, urug'chilikka asoslangan byurokratik tizim mavjud edi. Xivada boshqa xonliklardan farqli o'laroq inoq degan lavozim bo'lib, bu lavozimni egallagan odam

¹ Ogahiy. Zubdat ut-tavorix. // Qo'lyozma. O'zFA ShI. – № 821/II. Yana qarang: SVR, VII. – № № 5023, 5024.

xondan keyingi odam hisoblanib, amir-ul-umaro, ya'ni hukmdorlar hukmdori deb atalardi. Xonlikda devonbegi ham bo'lib, u xonning o'zidan keyingi amaldor hisoblanardi. Yana qo'shbegi degan lavozim bo'lib, unga xonlikning janubiy qismidagi o'troq aholi bo'ysunardi. Bu yerda xon, vazir va qushbegidan tashqari yana 5 kishidan iborat xon maslahatchilari (ular urug' boshliqlaridan tuzilardi) bo'lgan har urug' boshliqlaridan (inoqlar va otaliqlar) 2 kishi davlat boshqaruviga kirgan¹.

Xonlik boshqaruvida yasovullar shtati bo'lgan. Yana yuzboshi, mingboshi kabi amaldorlar bo'lgan. Yana joylardagi amaldorlar o'zlarining quyi boshqaruv tizmlariga ega bo'lib, o'z yerlarini mustaqil boshqarishgan. Xonlik o'z navbatida okruglarga bo'lingan bo'lib, ularni hokimlar va qozilar boshqargan. Xonlikda yashovchi turkman, qozoq va qoraqalpoqlar hokimlarga bo'sunmay, faqat o'zlarining urug' boshliqlariga itoat qilganlar. Turkmanlarda ular bek hamda vakillar deyilsa, qoraqalpoq va qozoqlarda biy deb atalganlar. Xonlikda din ahllari: so'filar, shayxlar katta hurmat e'tiborga ega bo'lganlar.

Xonlikda XIX asr 1 yarmida ham feodal munosabatlarning rivojlanib borishiga qaramay, o'tmish patriarxal hayot qoldiqlari saqlanib qolayotgan edi. Yer hamda suv xon, yirik feodallar qo'lida edi. Ayrim feodallar qo'li ostidagi yerlar 15 ming tanobni tashkil qilganda, oddiy jamoa a'zosi bo'lgan dehqonning yeri 1-2 tanobdan oshmas edi.

Rus elchisi ((Moskva) Ivan Xoxlov ma'lumotiga ko'ra XVII asrda xon qo'shinlari soni 15 mingdan 30 minggaacha bo'lgan. Xonlik iqtisodini bu davrda og'ir soliqlardan tushgan pullar tashkil qilgan. Iqtisodiy hayot xonlikda juda og'ir bo'lgan. Xiva xonligida yerning bir qismi hukmronlik qildayotgan sulola a'zolariga (to'ralarga), shuningdek harbiy boshliqlarga (sarkardalarga) hamda vaqf yerlari sifatida masjid-madrasalarga berilgan²⁰. Bu yerlarda ishlovchi ijarachilar "bevatanlar", "yarimchilar" deb atalganlar. Oddiy mehnatkash xonga "salgut" deb

¹ Ogahiy. Riyoz ud-davla. // Qo'lyozma. O'zFA ShI. – № 5364/11. Yana qarang: SVR, VII. – № 5022.

²⁰ Огахий. Зубдат ут-таворих. // Қўлёзма. ЎзФА ШИ. – № 821/II. Яна қаранг: СВР, VII. – № № 5023,5024.

atalgan og'ir yer solig'ini to'lagan. Yana “begar”deb atalgan majburiyat bo'lib, bunga asosan har bir xonadondan bir kishi 12 kun davomida xonga ishlab bergan. Aholining dehqonchilik bilan shug'ullanadigan qismi suvni yetishmasligidan azob chekkan. Boylarning yerlarida qullar ishlab zilgan. Shahardagi hayot bu davrda og'ir bo'lgan. Shahar aholisi hunarmandchilik, ayrimlari dehqonchilik bilan shug'ullangan. Bug'doy, arpa ekkan, qurt boqishgan. Savdo kam rivojlangan. Chunki qaroqchilar hujum qilib turgan. Savdoni og'ir ahvolga tushishi shahar aholisi hayotini yomon ahvolga tushirib qo'yganini 1558 yilda Xivani kuzatgan Jenkinson yozadi. 1573-1575 yilda Amudaryo o'z izini o'zgartiradi natijada eski izi atrofidagi joylashgan qishloq va shaharlarda hayot to'xtaydi. Odamlar eski Urganchdan, yangi Urganch janubroqqa o'tib yashaydigan bo'ladi.

Amudaryo eski o'zanini qurishi xonlik markazini Xivaga ko'chishiga sabab bo'ladi.

Amudaryo o'zanini o'zgarishi mamlakat iqtisodiy hayotiga katta ta'sir qildi. Xonlik xazinasi bo'shab, hatto amaldorlarga ham yillab oylik to'lanmay qoldi.

Shunga qaramay bu davrda yangi shaharlar qurishga e'tibor berildi. Natijada Xazorasp, Xonqa, Shohobod kabi shaharlar qurildi. Anushtegin davrida (1663-1687) yangi Qiyot shahri tuzilib, Amudaryo eski o'zani atrofida yashagan odamlar ko'chirib o'tkazildi. 1681 yilda yirik Shohobod kanali qurib ishga tushirildiki, uning xonlik iqtisodiy hayotida ahamiyati katta bo'ldi. Lekin xonlikdagi iqtisodiy ahvol yana uzoq vaqtlargacha og'irligicha qolgan edi²¹. Xonlikda arxitektura qurilishlariga ham katta e'tibor berilgan. M: bunga Anushaxon davrida Xivada qurilgan va saqlanib qolayotgan Arabshoh madrasasi(1616) qator machit va madrasalarni, jumladan ikki qavatli Sherg'oz madrasasini (1719) kiritish kiritish mumkin.Xonlikning Xiva, Urganch, Xazorasp, Xo'jayli, Tashouz, Gurlan, Xonqa va boshqa shaharlarda hunarmandchilik rivojlangan bo'lib, ipakdan jundan ajoyib matolar, gilamlar ishlab chiqarilgan. Shuning uchun yuqoridagi shaharlarda savdo-sotiq gavjum bo'lgan. Ayniqsa Afg'oniston va Rossiya bilan savdo-sotiq yuqori

²¹ O'zbekistonning yangi tarixi. II-kitob.T.2000. B.84

bo'lgan. Masalan faqat 1844 yilda Rossiyaga 137 ming so'mlik turli tovar chiqarilgan. Rossiya esa Xivaga shu yili 276 ming so'mlik tovar olib kelgan. Qishloq xo'jaligida asosan qo'l mehnatidan foydalanilgan. Mehnat qurollari qoloq bo'lgan. Bu o'z navbatida xonlikda iqtisodiy ahvolni yomonligiga sabab bo'lgan. Har uch xonlikda, jumladan Xiva xonligida ham o'z puli bo'lgan. Bu pullar oltin, kumush tangalar va mis puldan iborat bo'lgan.

XVIII asr boshlariga kelganda iqtisodiy tushkunlik vujudga keldi. Bunga sabab shu davrda o'zbeklar bilan turkmanlar o'rtasidagi to'xtovsiz urushlar, Buxoro xonlarining Xiva xonlari ichki ishlariga aralashuvi, Qozoq qolmiqlarini to'xtovsiz hujumlari, Eron shohi Nodirshohni Xorazmni 1740 yilda bosib olishi (Elbarsxon davrida) bo'ldi.

Bundan foydalangan Petr 1 1714-1717 Xorazmga Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasini yubordi. Bu vaqtda Xiva taxtida Sherg'ozi xon o'tirgan edi. (1715-1718 yillar) Xiva xonligida aholi XIX asr I yarmida 350000-500000 ni tashkil qilgan. Asosiy qismi o'troq aholi edi. Bir qismi chorvachilik bilan shug'ullangan.

Ijtimoiy hayotning o'ziga xos xususiyati Xiva xonligining ijtimoiy hayotida Buxoro xonligidagidek sokinlik hukm surardi.

Bu sokinlikning sababi - xonlikning jahon taraqqiyotidan deyarli uzilib qolganligida edi. Mamlakatda uzoq vaqt siyosiy tarqoqlik hukm surgan, natural xo'jalik ustun bo'lgan, to'xtovsiz davom etgan o'zaro ichki urushlar hamda tashqi hujumlar oqibatida mamlakat iqtisodiyoti izdan chiqqan sharoitda ijtimoiy hayotning bundan boshqacha bo'lishi mumkin emas edi. Hukmron tabaqalarning aksariyat qismi davlat, millat taqdiridan ko'ra o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yganlar.

Xonlik aholisi

XIX asrning 20- yillari boshlaridagi ma'lumotlarga ko'ra Xiva aholisining soni 300 ming kishini tashkil etgan. Bu raqam qat'iy bo'lmasdan xonlik hududining kengaya borishi bilan xonlik ftiqaroligini qabul qilganlarning soni ko'payib borgan.

Xonlik poytaxti Xiva shahrida 4 ming aholi yashagan. Aholining katta qismi o'zbeklardan iborat bo'lgan. Undan keyingi o'rinlarni turkmanlar, qoraqalpoqlar va qozoqlar egallashgan. o'zbeklar, asosan, qo'ng'iroq, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'li, xitoy, qipchoq kabi qabilalariga mansub bo'lgan.

Ularning har biri, asosan, o'zlariga ajratilgan yerlarda joylashgan. Har biri alohida-alohida kanalga ega bo'lishgan. Har bir qabila o'zlariga qarashli sug'orish inshootlarni tiklash va ta'mirlash ishlarida qatnashgan. Har bir qabilaning kanali ham shu qabila nomi bilan atalgan.

Davlat tuzumi va boshqaruv tizimi

Xonlik mutlaq monarxiya bo'lib, oliy hukmdor - xon davlat boshlig'i edi. Ma'muriy jihatdan xonlik hududi 15 ta viloyatga («Pitnak, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Qo'shko'pir, g'azovat, Qiyot, Shohabbos, Toshhovuz, Ambar-Manoq, Gurlan, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Chumanoy va Qo'ng'iroq») va 2 ta noiblikka (Beshariq va Qiyot-Qo'ng'iroq), shuningdek, xonning bevosita o'ziga bo'ysundirilgan tumanlarga bo'lingan edi. Davlat boshlig'i - xon hokimiyati vakolati nasldan naslga o'tgan. Xondan keyingi o'rinda dastlabki asrlarda inoq turgan. XIX asrning birinchi yarmidan boshlab esa inoqning mavqeyi pasaya borgan. Muhammad Rahimxon I davrida nufuzli amaldorlardan iborat Devon tuziladi. Devon davlat hayotiga oid masalalarni hal etgan. Devonda xondan keyingi o'rinda qo'shbegi turadigan bo'ldi. U xonning birinchi yordamchisiga aylandi. Xonning barcha yorliq va farmonlari uning qo'lidan o'tgan²².

Qo'shbegidan keyingi o'rinda mehtar turgan. U xonlikning moliya vaziri edi.

Bundan tashqari, devonbegi, shayxulislom, qozikalon, eshon rais, mirzaboshi, mirshab, mahram, katta beklar (viloyat va katta shaharlar hokimlari), kichik beklarva xon maslahatchilari kabi turli lavozimlar bo'lgan. Xonning ishonchli vakillari hisoblangan inoqlarning mavqeyi kuchli bo'lgan davrlarda ulardan 5 kishi a'zo bo'lgan «Xon kengashi» (maslahat kengashi) faoliyat ko'rsatgan.

²² Sagdullayev A.O'zbekiston tarixi, T., 1999.

Xonga sadoqat bilan xizmat qilganlarning lavozimlari ba'zan o'g'illariga meros qilib berilgan. Viloyatlarni beklar, noibliklarni xon tayinlagan noiblar boshqargan. Ular, asosan, moliya va mirshablik vazifalarini bajarganlar.

Xonlik tarkibidagi qozoq va qoraqalpoqlar esa o'zlarining biylari, turkmanlar esa ularning vakili tomonidan oshqarilgan. Ularning lavozimlari nasldan naslga meros bo'lib o'tsa-da, nomzodini xon tasdiqlashi shart bo'lgan²³.

Yer egaligi

Xonlikning asosiy boyligi yer hisoblanardi. Bu yerlar sug'oriladigan (axya) va sug'orilmaydigan (adra) yerlardan iborat edi. Egalik shakliga ko'ra, Xiva xonligining yerlari ham uchga bo'lingan.

1. Davlat yerlari (podshohi). 2. Xususiy mulk (xususiy yerlar). 3. Vaqf yerlari.

Xon va uning qarindoshlari, oliy martabali boshqa turli amaldorlar, ruhoniylar, savdo-sotiq tabaqalari barcha yerlarning deyarli yarmiga egalik qilishgan. Amaldorlarning yerlari 2-3 ming tanobni tashkil etgan. Xon va uning qarindoshlari undan ham katta hajmdagi yer maydonlariga egalik qilishgan. Qolgan yerlar davlat ixtiyoriga olingan (vaqf yerlaridan tashqari). Davlat yerlarida va xususiy mulk yerlarida ijarachi dehqonlar mehnat qilganlar. Ijara yerlarining hajmi 10 tanobgacha bo'lgan.

Xon va boshqa xususiy mulk yerlarida dehqonchilik qiluvchilar yarimchilar deb atalgan. Bunday deb atalishiga ular yetishtirgan hosilning yarmini ijara haqqi uchun berganliklari sabab bo'lgan edi.

Xonning qarindoshlari o'z xususiy yerlaridan davlatga soliq to'lmas edilar. Davlat soliqlaridan ruhoniylar, katta amaldorlariy tarxon yer olganlar ham ozod etilgan edilar²⁴.

Mayda yer egalari tobora xonavayron bo'lib borganlar. Oxir oqibatda, ular yerlaridan judo bo'lganlar.

Shaharlarning iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolishi, yirik sanoatning mutlaqo yo'qligi oqibatida g'arbiy Yevropa davlatlarida yersiz dehqonlar shaharga

²³ Xorazm tarixi. Urganch . 2004.

²⁴ www.ziyouz.net sayti, www.wikepediya.com sayti

ish izlab borishdek imkoniyatga ega bo'lmagan. Oqibatda, ular qishloqda qolishga majbur bo'lganlar. Suv tanqisligi tufayli dehqonchilik qiyin sharoitda olib borilardi. Shu boisdan Amudaryodan suv chiqarishga e'tibor berildi. XVIII asr 70-yillarida Davkor ko'li yonida kanal, XIX asr boshlarida esa Lavzan kanali, Qilich Niyozbiy kanali, Katta Xonobod kanali qurildi. Bu tadbirlar yerlarni sug'orish holatini yaxshilashga ko'maklashdi.

Soliq va majburiyatlar

Xiva xonligida soliq va majburiyatlar haddan tashqari ko'p bo'lgan. Asosiy soliq salg'ut, ya'ni yer solig'i edi. Bundan tashqari, salg'ut (bir yo'la to'lanadigan soliq), miltiq puli (qurol sotib olish uchun aholidan yig'iladigan jarima), arava oluv (aholining qo'lidagi aravalarini davlat ishlariga safarbar etish), uloq tutuv (aholining qo'lidagi otlar va tuyalami safarbar etish), qo'nalg'a (elchilar va arnaldorlarga ko'chib o'tish uchun joy berish), so'ysun (qo'nalg'a chog'ida amaldorlarni mehmon qilish uchun mol so'yish), chopar puli (soliq yig'ish xabarini yetkazuvchilar uchun haq to'lash), tarozuyona (tarozibonga to'lov haqi), mirobona (mirob uchun yig'im), darvozabon puli (yukni o'tkazganlik uchun shahar darvozasi qorovuliga to'lanadigan haq), mahalliy hukmdorga haq to'lash, qorovulga haq to'lash, pul solig'ini qabul qilayotganda xazinachiga haq to'lash, qo'riqbonga (o'rmon yoki yaylov nazoratchisiga) haq to'lash, mushrifona (hosilni tekshiruvchi va uning miqdorini aniqlovchi amaldoiga haq to'lash), afanak puli (begar majburiyatini o'tash haqida xabar berganlik uchun to'lanadigan haq), chibik puli (ommaviy ishlarda qatnashishdan ozod etilgani uchun to'lanadigan haq), ruhqniylarga to'lanadigan haq.

Ko'rinib turibdiki, mehnatkash xalq 18 ta soliq va boshqa to'lovlar to'lagan. Hunarmandlar, tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi savdogarlar, chorvadorlar zakot to'lashgan.

Bundan tashqari, mehnatkash xalq tinkasini qurituvchi quyidagi bir qancha majburiyatlarni ham o'taganlar:

1. Begar - rasman 12 kunlik davlat majburiyati; unga ko'ra, qishloqning har bir xonadonidan bir kishidan odamlarni to'plashardi. Ular har yili turli qurilish

ishlarida, kanal qazishda, yo'llarni tuzatishda, xon saroylari qurilishida ishlar edilar.

Begarning muddati 12 kun deb belgilangan bo'lsa-da, aslida u bir oy, undan ko'proqqa ham cho'zilar edi.

2. Qazu - butun qishloq aholisini katta va kichik kanallarni tozalashga safarbar etish majburiyati.

3. Ichki va obxo'ra qazu - har yili kanallarning suv taqsimlagichini tozalash majburiyati.

4. Hachi - himoya dambalari qurish va ulami mustahkamlashda qatnashish majburiyati.

5. Otlanuv - xon ovida qatnashish uchun lashkarlikka kelish.

Sug'orish tizimi bilan bog'liq majburiyatlar oddiy mehnat- kash xalq yelkasidagi og'ir yuk edi. Chunki bu majburiyatlarning barchasi qo'lda ketmon bilan bajarilar, tuproqlar esa zambilda tashilar yoki yelkada ko'tarilib chiqilar edi²⁵. Suv chiqarish va himoya to'g'onlari tuproq, yog'och hamda chimlardan qurilar ediki, ko'pincha ular suvning bosimiga bardosh bera olmas edi. Ana shunday paytlarda ular qaytadan qurilardi. Bosimga bardosh berganlari esa bir yildan ortiqroq chidamas edi. Kelasi yili ularni qayta qurish kerak bo'lardi. Mehnatkash xalqning og'ir qismatini o'zaro ichki urushlar battar og'irlashtirgan edi.

²⁵ А. Сагдуллаев Ўзбекистон тарихи, Т., 1999. Б.74

II-BOB. XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA SAN'AT VA MADANIYAT

2.1. XX asr boshlarida Xiva xonligida shaharlar hayoti, me'morchilik, uning san'at va madaniyat rivojida o'rni

XVI asrda Xiva xonligi iqtisodiy inqirozga duchor bo'ldi. Buning asosiy sabablaridan biri - Amudaryoning o'z o'zanini o'zgartirib, 1573- yildan boshlab Kaspiy dengiziga oqmay qo'yganligi bo'ldi. Daryo 15 yil davomida Orol dengizi yo'nalishiga burildiki, natijada eski o'zan atrofidagi yerlar cho'lga aylandi. Aholi esa xonlikning boshqa hududlariga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan. Bundan tashqari, Xiva xonligining XVI asrda ikki marta Buxoro xonligi tomonidan bosib olinishi, shuningdek, o'zaro qabilaviy urushlar, og'ir soliqlar hamda turli to'lov va jarimalar mamlakat aholisini xonavayron qilgan. Bu hoi, o'z navbatida, savdo-sotiqqa katta putur yetkazgan²⁶.

Xiva xonligida Xiva, Ko'hna Urganch, Yangi Urganch, Vazir kabi o'nlab shaharlar mavjud bo'lgan. Ulardan eng qadimiysi Xiva shahri hisoblanadi. Xiva shahri milloddan avvalgi V asrda yuzaga kelganidan buyon uning tarixi butun Xorazm tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib keldi. Xivaning mashhurligi u bunyod etilgan davrlaridanoq Sharq bilan G'arbni bog'lovchi savdo yo'li o'tganligi bilan izohlanadi.

Xiva shahri XVI asr boshlaridan 1920-yil fevralgacha Xiva xonligining poytaxti bo'lgan²⁷.

Ko'hna Urganch Xonlikning yana bir shahri — Ko'hna Urganch (Gurganch) shahridir. Qadimda bu shahar joylashgan hudud hozirgi Turkmaniston (Toshhovuz viloyati) tarkibidadir. Ko'hna Urganchga asos solinganligiga 2000 yildan oshdi.

²⁶ Xorazm tarixi. Urganch . 2004.

²⁷ Danilevskiy G.I. Opisanie Xivinskogo xanstva. ZIRGO, 1851. Kn.: 5.

Shahar muhim savdo karvoni yo'llari kesishgan yerda joylashganligi uchun ham tez rivojlangan.

Ko'hna Urganch X - XI asrlarda Xorazm davlatining poytaxti edi. Bu shahar arab geograflari asarida Jurjoniya nomi bilan qayd etilgan. X asrning ikkinchi yarmida poytaxt Gurganchda mustaqil amirlik tuzilgan. 995- yilda Gurganch amiri Ma'mun ibn Muhammad poytaxti Kot shahri bo'lgan xorazmshohlarni tor-mor etib, o'zini Xorazmshoh deb e'lon qilgan. Shu tariqa Gurganch Xorazm davlatining yagona poytaxtiga aylangan.

XI - XII asrlarda bu shaharda madaniyat, ilm-fan rivojlandi. Shahar mustahkam qal'a-devor bilan o'rab olindi. 1221-yilda Chingizxon hujumi natijasida Ko'hna Urganch shahri taqdiri nima bo'lganligini eslang.

1646- yilda Abulg'ozixon hozirgi Urganch shahriga asos soldi. Bunga yuqorida qayd etilgan Amudaryoning o'z yo'nalishini o'zgar-tirib Orol dengizi tomon oqa boshlagani, buning oqibatida Gurganchning (Ko'hna Urganch) suvsiz qolganligi sabab bo'lgan edi. Shundan keyin qadimgi Gurganchning nomi Ko'hna Urganch bo'lib qoldi.

Vazir shahri

Vazir Xorazmning shahar-qal'alaridan biri bo'lgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, shayboniylardan bo'lgan Mustafaxon tomonidan XV asr o'rtalarida asos solingan. XVI asrda shayboniylarning o'zaro urushlari shaharni vayron bo'lishiga olib kelgan. 1558- yilda Xivaga kelgan Antoniy Jenkinson bu haqda bunday deb yozgan edi: „Vazir shahri keyingi 7 yil mobaynida o'zaro urushlar oqibatida to'rt marta vayron bo'ldi. Shuning uchun ham bu yerda savdogarlar juda kam, borlari ham nochor”. 1593 - 1598- yillarda esa Abdullaxon II harbiy yurishlari chog'ida ham shahar yana vayron etildi.

Abulg'ozixon Yangi Urganchga asos solgach, Vazirning qolgan aholisini ham shu yerga ko'chirgan. Shu tariqa shahar o'z ahamiyatini butunlay yo'qotgan.

1573-1575 yilda Amudaryo o'z izini o'zgartiradi natijada eski izi atrofidagi joylashgan qishloq va shaharlarda hayot to'xtaydi. Odamlar eski Urganchdan, yangi Urganch janubroqqa o'tib yashaydigan bo'ladi.

Amudaryo eski o'zanini qurishi xonlik markazini Xivaga ko'chishiga sabab bo'ladi. Xonlikda arxitektura qurilishlariga ham katta e'tibor berilgan. M: bunga Anushaxon davrida Xivada qurilgan va saqlanib qolayotgan Arabshoh madrasasi(1616) qator machit va madrasalarni, jumladan ikki qavatli Sherg'oz madrasasini (1719) kiritish kiritish mumkin. Xonlikning Xiva, Urganch, Xazorasp, Xo'jayli, Tashouz, Gurlan, Xonqa va boshqa shaharlarda hunamandchilik rivojlangan bo'lib, ipakdan jundan ajoyib matolar, gilamlar ishlab chiqarilgan. Shuning uchun yuqoridagi shaharlarda savdo-sotiq gavjum bo'lgan.

XVIII asr oxiriga kelib shaharlar hayotida uzoq davom etgan tushkunlik holati barham topdi. XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asr boshlarida katta ko'lamdagi sug'orish inshootlarining tiklanishi hamda yangilarining bunyod etilishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishiga asos bo'ldi. Bu hodisa, o'z navbatida, shaharlarda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning o'sishiga sabab bo'ldi.

Biroq bu o'sishni Yevropa davlatlari iqtisodiyoti taraqqiyot bilan aslo tenglashtirib bo'lmas edi. Bu davr - g'arbiy Yevropa davlatlari hayotida tub sifat o'zgarishlar davom etayotgan davr edi. Chunonchi, Buyuk Britaniyada boshlangan sanoat to'ntarishi Yevropaning boshqa ilg'or davlatlariga ham yoyilgan, XIX asr o'rtalariga kelganda esa u nihoyasiga yetayotgan edi. Binobarin, Yevropa davlatlarida kapitalistik munosabatlar gurkirab rivojlanayotgan edi.

O'rta Osiyo xonliklarida, jumladan, Xiva xonligi jamiyati hayotida hamon o'rta asr yer egaligi munosabatlari hukmron edi. Xiva — muzey-shahar, lekin Rim shahri kabi aholi yashaydigan shahardir. Sharqning ko'pgina shaharlari kabi Xiva Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Xeyvak nomli suv havzasi yonida barpo etilgan bo'lib, Xorazm vohasining sug'oriladigan yerlarida rivojlanib kelgan. Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, shahar kamida 2500 yoshga kirgan²⁸.

²⁸ O'zbekiston adabiyoti va san'ati». 1990 yil 10 avgust.



Bularning hammasi YUNESKO tashkilotiga Xivani qo'riqxonahamiatidagi shahar deb e'lon qilishga, shaharning ichki qismi bo'lgan Ichan-qal'ani esa jahon ahamiyatidagi tarixiy yodgorlik deb e'tirof etishga asos bergan. «Avesto» kitobi Xorazm to'g'risida tarixiy ma'lumotlar beradi. «Tarixning otasi» deb sanalgan Gerodot Xorazm va xorazmliklar to'g'risida gapirib o'tgan edi. Beruniy esa Xorazmdagi qadimiy dehqonchilik to'g'risida hikoya qilgan.





Xiva — tarixiy qurilish, butunligicha bino va inshootlar, aslida ochiq havodagi butun bir shahar amalda tarixiy holida saqlanib qolgan dunyoning bir nechtagina shaharlaridan biridir. XVIII asr oxiri — XIX asr oʻrtasidagi Xiva shahrining monumental inshootlari goʻyoki qaytadan barpo etilgan shaharni hosil qilgan boʻlib, u bizni bor-yoʻgʻi ikki-uch avlod ustalarning hayoti davomida qurilishi tezligi bilan hayratda qoldiradi. Lekin boshqa sharoitlarda halokatli boʻladigan holatlar – kichik yer boʻlaklaridagi tasodifiy qurilishlar, oʻta siqiq sharoitlar va yer kamligi bu yerda meʼmorchilik inshootlarining benihoya goʻzalligi, nafisligi va turli-tumanligiga sabab boʻldi. Xivaning eng koʻp va siqiq holda inshootlar qurilgan qismi boʻlgan aynan shu Ichan-qalʼa taqdir taqozosi bilan meʼmorchilik muzeyiga aylandi, uning yodgorliklarida bizga xalq ustalarining eng goʻzal asarlari namoyon boʻladi.



Ichan qal'a — O'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlik. Xivaning ichki qal'a (Shahriston) qismi. Ichan qal'a shaharning Dishan qal'a (tashqi qal'a) qismidan devor bilan ajratilgan. U Xiva raboti (Dishan qal'a)dan baland qo'rg'on tepaga o'xshab ko'rinadi. Ichan qal'aga 4 darvoza (Bog'cha darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvoza)dan kirilgan.

Xorazm xalq me'morligining ajoyib obidalari: madrasa, masjid, saroy va minoralar, asosan, Ichan qal'ada joylashgan.

Undagi me'moriy yodgorliklarning yaratilish tarixi, asosan, 4 davrga taalluqli: birinchisi Xorazmning qadimgi davridan to mo'g'ullar istilosi davriga qadar, bu davrdan Ko'hna arkning g'arbiy devori, qal'a devorining shimoliy-sharqiy burchagidagi qadimgi davrga mansub burj va qal'a devori qoldiqlari saqlanib qolgan²⁹.

Ikkinchisi Xorazmning 1220 yildagi mug'ullar istilosidan keyin tiklanish davri. Bu davrda Sayid Alovuddin maqbarasi va boshqa mahobatli binolar qurilgan.

²⁹ Ogahiy asarlarining tavsifi (katalog). — T., 1986.

Uchinchi davri XVI- XVII-asrlarga to'g'ri keladi. Shu paytda (Abulg'ozixon va Asfandiyorxon hukmronlik davri) Ichan qal'ada Anushaxon hammomi (1657), peshayvonli Oq masjid (1675), Xujamberdibek madrasasi (1688) kabilar bunyod etildi, Ko'hna ark istehkomlari mustahkamlandi, ko'rinishxona (xonning qabulxonasi) qurildi (1686 — 1688). Buxoro bilan Eron o'rtasida Xiva xonligi uchun boshlangan urush natijasida (XVIII-asrning 1-yarmi) Ichan qal'a va, umuman, Xiva shahri qattiq shikastlandi (Xiva bir qancha vaqt Eronga tobe viloyat bo'lib turdi)³⁰.

To'rtinchi davri XVIII- XX-asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda O'rta Osiyo mahalliy me'morligi an'analari asosida masjid, madrasa, tim va toqilar qurildi. Ota darvozadan Polvon darvozagacha katta yo'l o'tkazildi. XVIII-asr oxirida Juma masjid qayta qurildi va uning yonida baland minora qad kutardi. Ichan qal'aning xaroba devorlari tiklandi, bir qancha imoratlar ta'mir qilindi. 1840- 1842 yillarda ikki qavatli (Qutlug' Murod) Inoq madrasasiga qaratib tim va toqilar qurildi. Muhammad Raximxon (1806- 25), Olloqulixon (1825- 1842), Muhammad Aminxon (1845- 1855) hukmronligi davrida Ichan qal'ada qurilish avj oldi. Muhtasham saroy, madrasa, maqbaralar barpo etildi. Ko'hna arkdagi saroy qurilishi tugallandi. Yangi va karta Tosh hovli saroyi qurildi. Polvon darvozaga yaqin qo'rg'on devorining bir qismi buzilib, o'rniga Olloqulixon karvon saroyi, madrasasi va timi qurildi, xalq ijodining ajoyib namunasi Pahlavon Mahmud maqbarasi qad ko'tardi. Arab Muhammadxon va Musa To'ra madrasalari ham shu davrda yaratildi. Muhammad Aminxon Ichan qal'aning g'arbiy qismiga — Ko'hna ark yoniga Kalta minor nomi bilan mashhur bo'lgan minora qurdirdi. Bu minora garchi bitkazilmay qolgan bo'lsa-da, Ichan qal'a mujassamotida katta o'rin tutadi.

Madrasalardan eng yirigi — Muhammad Aminxon madrasasidir. Uning o'ziga xos xususiyatlari – ikkitalik hujralardir. Old devorlarning naqshli bezatilishida rangli g'ishtin termalarning qatlamlari hamda o'simlik tusidagi naqshlar bo'lgan mayolika bilan qoplangan bezaklar kiritilgan. Eshiklar va

³⁰ O'zbekistonning yangi tarixi. II-kitob.T.2000

panjaralar ajoyib o'yma naqshlar bilan bezatilgan. O'rta asrlar shaharlarini tashqi devorlar va minoralarsiz, shahar ichidagi ark qal'asisiz tasavvur qilish qiyin. Xiva shahri ham shunday. Ichan-qal'a avvaldan uni himoya qiladigan ulkan qal'a devorlari bilan o'ralgan edi. XIX asr o'rtasida esa Xivaning atrofida o'nta darvozasi bo'lgan yangi qal'a devorlari bunyod etilgan. Shundan e'tiboran shaharning ushbu kattaroq xalqasi Dishan-qal'a, yoki «tashqi qal'a» deb nomlanadigan bo'ldi.

Xivaning ma'naviy hayotida muqaddas joylar — mozorlar va maqbaralar alohida o'rin tutgan. Ayniqsa e'tiborli sajdagohlardan biri – kasbi ko'nchi bo'lgan, jismi pahlavon, ruhi faylasuf, ko'ngli shoir bo'lgan Pahlavon Mahmud ismli ulug'vor zotning maqbara majmuasidir. Vafot etganidan keyin xalq uni pir – Xiva shahrining muborak homiysi sifatida e'tirof etgan. Asta-sekin Pahlavon Mahmudning go'ri atrofida xonlar urug'iga daxldor kishilarning go'rlari joylashgan mozor yuzaga keldi, keyin esa maqbaraga tegishli inshootlarning yirik majmuasi barpo etildi, ular yozgi va qish mavsumidagi masjidnlarni, ma'rakalar uchun mo'ljallangan inshootni va Qur'on o'qish xonalarini o'z ichiga oladi³¹.

XVIII asr oxiriga kelib shaharlar hayotida uzoq davom etgan tushkunlik holati barham topdi³².

XVIII asrning ikkinchi yarmi — XIX asr boshlarida katta ko'lamdagi sug'orish inshootlarining tiklanishi hamda yangilarining bunyod etilishi ishlab chiqaravchi kuchlarhng o'sishiga asos bo'ldi. Bu hodisa, o'z navbatida, shaharlarda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning o'sishiga sabab bo'ldi.

Biroq bu o'sishni Yevropa davlatlari iqtisodiyoti taraqqiyoti bilan aslo tenglashtirib bo'hnas edi. Bu davr — G'arbiy Yevropa davlatlari hayotida tub sifat o'zgarishlar davom etayotgan davr edi. Chunonchi, Buyuk Britaniyada boshlangan sanoat to'ntarishi Yevropaning boshqa ilg'or davlatlariga ham yoyilgan, XIX asr

³¹ O'zbekistonning yangi tarixi. II-kitob.T.2000

³² O'zbekiston adabiyoti va san'ati». 1990 yil 10 avgust.

o'rtalariga kelganda esa u nihoyasiga yetayotgan edi. Binobarin, Yevropa davlatlarida kapitalistik munosabatlar gurkirab rivojlanayotgan edi.

O'rta Osiyo xonliklarida, jumladan, Xiva xonligi jamiyati hayotida hamon o'rta asr yer egaligi munosabatlari hukmron edi.

Me'morchilik

XVIII asr oxirida Muhammad Amin hukmronligi davridan boshlab birmuncha siyosiy barqarorlik o'rnatildi. Bu omil Xiva shahrining holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, 1782- yilga kelib Xiva shahrida qayta tiklash ishlari tugallandi.

Qayta tiklash ishlaridan tashqari yangi me'moriy obidalar ham qurildi. Masalan, 1765- yilda Sherg'ozixon va Muhammad Amin madrasalari bunyod etildi³³.

XIX asr boshlarida Xiva xonligi poytaxti yirik qurilish maydoniga aylandi. Xon farmoyishi bilan karvonsaroy, usti yopiq bozor va ular oralig'ida 1834- yilda Olloqulixon madrasasi qurilishi tugallandi.

1842- yilda Muhammad Yoqub mehtar rahbarligida Xiva atrofida 6 km uzunlikdagi mustahkam shahar-qal'a devori va uning darvozasi qurib tugallandi. Natijada, xonning shahar tashqarisidagi 2 saroyi ham shahar ichiga kirdi. O'sha paytdan boshlab shahar hududining bu qismi Dishan qal'a — Tashqi shahar (qal'a) deb nomlana boshlangan.

Xivaning kichik xalqali qal'a-devori bilan o'ralgan qismi Ichan qal'a — Ichki shahar (qal'a) deb atalgan.

Xivada XIX asr birinchi yarmiga kelganda jami 2 xon saroyi, 17 masjid, 22 madrasa mavjud bo'lgan.

O'rta asrlarda Xiva allomalarning shahri bo'lgan. Bu yerda yirik fan markazlari faoliyat yuritgan – astronomiya, matematika, tibbiyot rivojlangan, buyuk olimlar Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) yashagan va ijod qilgan. Shoh Ma'mun ibn Muhammad huzurida o'rta asrlarning eng yirik

³³ Abulg'ozzi Bahodirxon. Shajarayi tarokima. – Toshkent: Cho'lpon, 1995.

Sharq olimlari ishlagan, ular «Ma'mun Akademiyasi» ni tashkil qilganlar. Sharqda mashhur bo'lgan XIX asr shoirlari Shermuhammad Munis va Ogahiyilar bu yerda o'z asarlarini yaratganlar. Shahar «Xorazm vohasining durdonasi» nomiga sazovor bo'lgani bejiz emas.

O'zining gullab-yashnagan davrida Xorazm davlati xalqaro savdoning eng yirik markazi, Buyuk Ipak yo'lining asosiy ahamiyatga ega bo'lgan qismi edi. Bu yerga Volgabo'yidan, Hindiston, Eron davlatlaridan savdogarlar kelar edi, savdo karvonlari bu yerdan Yaqin Sharqqa, Sharqiy Turkiston va Xitoyga ketar edi. Xivadan turli-tuman savdo yo'llari Mo'g'ulistonga, Qozog'iston dashtlari orqali Volga irmog'idagi savdo shahri bo'lgan Saksin shahriga, undan rus knyazliklari va Yevropaga olib borar edi. Arxeologlar qadimiy karvon yo'llarining yangi-yangi yo'nalishlarini, jumladan, Xorazmdan Mang'ishloq tomonga va u yerdan dengiz orqali Quyi Volgabo'yiga yo'nalishlarni ochmoqdalar. Bu xivalik savdogarlar Markaziy Osiyo davlatlarining Sharqiy Yevropa bilan olib borgan savdosining katta qismini o'z qo'llariga olganligidan dalolat beradi³⁴.

Kechqurun qorong'i tushganda va oy – musulmonlarning muqaddas ramzi minoralarning tepalarini, masjidlar gumbazlari va madrasa darvozalarini jozibali nuri bilan yoritganda xuddi sehrli shaharga kelib tushgandek ko'rinadi. Xiva shunday afsonaviy shahardir.

Ichan qal'a qurilishida Xiva me'morlari O'rta Osiyoda qadimdan qo'llanib kelgan uslub — inshootlarni ro'parama-ro'para qurish uslubi (V«qushV»)dan foydalanishgan. Masalan, Olloqulixon madrasasi bilan Kutlug' Murod Inoq madrasasi, Sherg'ozixon madarasasi bilan Pahlavon Mahmud maqbarasi shu uslubda qurilgan.

Ichan qal'a me'morligining Yana bir o'ziga xos xususiyati binolarning alohida ansambl holida qurilganligi.

³⁴ Matyakubova M. Xiva xonligi tarixi manbalari (Muhammadrizo Ogahiyning tarixiy asarlarini kodikologik xususiyatlari). Urganch, 2006.

1997-yilda Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan asosiy yo'nalishlarda joylashgan yodgorliklarni muntazam ravishda ta'mirlash-tiklash ishlari olib borildi³⁵.

An'anaga ko'ra, shaharning ma'naviy markazi uning katta, yoki juma masjidi sanalar edi. Masjidni rejalashtirish zamirida X—XII asrlarda yaratilgan konstruksiyalar yotgan, deb hisoblashadi. Ichan-qal'adagi Juma masjidi ham XVIII asrning oxirida qayta qurilgan, lekin u Sharqning klassik inshootlarining qator xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan. Bu o'ziga xos bir qavatli binoning old kirish portallari, gumbazlari va dumaloq arkalari yo'q, u eramizning X- XVII asrlarida yaratilgan 213 dona yog'och naqshinkor ustunlarga tayanadigan yassi tomli ulkan zaldir. Ularning o'lchamlari, shakllari va bezaklari turlicha bo'lib, aynan ular masjidning yuksak badiiy qiymatini namoyon etadi. Olimlarning fikricha, ushbu xususiyatlarning barchasi bu masjidni Arabistondagi qadimiy masjidlarga yaqinlashtiradi.

Ichan qal'a

Ichan qal'a Dishan qal'adan devor bilan ajralib turadi. Unga Bog'cha, Polvon, Tosh va Ota deb nomlangan to'rtta darvoza orqali kirilgan. Xorazm o'lkasi me'morchiligining ajoyib obidalari - madrasa, masjid, saroy va minoralar Ichan qal'ada joylashgan.

Mazkur asrlar davomida Ota darvozadan Polvon darvozagacha katta yo'l o'tkazildi. XVIII asr oxirida Juma masjid qayta qurildi va uning yonida baland minora ham qad ko'tardi.

1840-1842- yillarda ikki qavatli Qutlug' Murod Inoq madrasasiga qaratib tim va toqilar qurildi³⁶.

Muhammad Rahimxon, Olloqulixon va Muhammad Aminxon hukmronliklari davrida Ichan qal'ada keng ko'lamli yaratuvchilik ishlari amalga oshirildi. Muhtasham saroy, madrasa, maqbaralar barpo etildi. Ko'hna arkdagi saroy

³⁵ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida ... T., O'zbekiston, 1997.

³⁶ Ogahiy. Riyoz ud-davla. // Qo'lyozma. O'zFA ShI. – № 5364/11. Yana qarang: SVR, VII. – № 5022.

qurilishi tugallandi. Yangi va katta Toshhovli saroyi qurildi. Polvon darvozaga yaqin qo'rg'on devorining bir qismi buzilib, o'rniga Olloqulixon karvonsaroyi, madrasasi va timi qurildi.

Shuningdek, ajoyib me'morchilik namunasi Pahlavon Mahmud maqbarasi bunyod etildi. Bundan tashqari, Arab Muhammadxon va Musa To'ra madrasalari ham shu davrda qad ko'tardi.

Muhammad Aminxon esa Ichan qal'aning g'arbiy qismidagi Ko'hna ark yoniga Katta minor nomi bilan mashhur bo'lgan minorani qurdirdi.

Ichan qal'ani bunyod etishda Xiva me'morlari O'rta Osiyoda qadimdan davom etib kelayotgan an'ana - inshootlarni ro'parama- ro'para qurish usulidan foydalanishgan. Bu usul «qo'sh» deb ataladi. ;

Ichan qal'ani bunyod etishda, bundan tashqari, binolarni alohida ansambl holida qurish an'alariga ham amal qilingan. Masalan, Polvon darvozasi oldidagi bir necha masjid, madrasa, hammom, toqi, karvonsaroy va xon saroyi ana shunday o'ziga xos ansamblni tashkil etadi. 1990- yilda Ichan qal'a Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan va muzeyga aylantirilgan³⁷.

Dishan qal'a

Dishan - Tashqi qal'a Xiva shahrining rabod qismi hisoblanadi. 1842- yilda Xiva xoni Olloqulixon Xiva shahrini tashqi dushmanlar hujumidan saqlash maqsadida shaharni uzunligi 6250 metr, balandligi 7-8 metr, devorining qalinligi esa 5-6 metr bo'lgan devor bilan o'ratgan.

Ichan qal'ada 4 darvoza bo'lsa, Dishan qal'a 10 darvozali bo'lgan. Dishan qal'aning ko'chalari Ichan qal'aning ko'chalari davomi tarzida qurilgan. Shaharning tim va savdo rastalari Dishan qal'ada joylashtirilgan.

Shunday qilib, o'rta asrlarda Xiva sharqning haqiqiy ma'nodagi madaniyat markazlaridan biri bo'lgan. Bu shahar o'z davri uchun allomalar shahri bo'lgan. Bu

³⁷ www.ziyoucom.uz sayti

yerda yirik fan markazlari faoliyat yuritgan – astronomiya, matematika, tibbiyot rivojlangan, buyuk olimlar Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) yashagan va ijod qilgan. Ularning ma'naviy me'rosi to'xtab qolmagan.

«Xorazm vohasining durdonasi» nomiga sazovor bo'lgan Xiva shahri, Xiva xonligidagi madaniyatning beshigi bo'lgan. Bu madaniy yuksalish esa Xiva me'morchiligida yaqqol namoyon bo'ladi³⁸.

³⁸ www.ziyoucom.uz sayti

2.2. XX asr boshlarida Xiva xonligida an'anaviy san'at turlari va ularning shakllanishi

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xiva xonligida madaniy hayot gullab yashnadi. Bu avvalo Xiva xonligini 1860-1910 yillarda boshqargan ilm-fan va madaniyat homiysi bo'lgan, Muhammad Raximxon Soniy – Firuz faoliyati bilan bog'liq. Bu paytda nafaqat ma'naviy madaniyat bilan bog'liq ilmlar; adabiyot, tarix musiqa ilmi ravnaq topdi. Balki bu paytda xalq amaliy san'ati – hunarmandchilikning har xil turlari yanada rivojlandi. Bu san'at namunalarida ko'plab yangi yutuqlarga erishildi. Ularni yasash noyob san'at darajasiga ko'tarildi. Bu holat Xorazm me'morchilik san'atiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayonga Xorazm vohasiga shiddat bilan kirib kelgan Yevropa (rus) madaniyati ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda edi³⁹.

Xiva xonligi tarixiy manbalarida hunarmandchilikning 27 sohasi qayd etilgan. Amalda esa, ular bundan-da ko'p bo'lgan. Hunarmand malakali usta bo'lishi uchun ko'p yil mashaqqatli mehnat qilgan. Odatda, usta o'z kasbini to'ng'ich o'g'liga o'rgatgan. Ayrim hollarda, ishda qo'shimcha kishining mehnati talab qilinsa, chetdan ham shogirdlar qabul qilingan. Shogirdga kasb o'rgatish shartlari va muddatlari yozma shartnomada rasmiylashtirilgan. Shogird hunarmand ustadan oq fотиha olib, o'zining alohida ustaxonasini ochishdan avval hunarmand ustalar oldida o'z mahoratini namoyish etishi kerak bo'lgan. Sinovdan o'tgan shogird shu tariqa ustaxona ochishga ruxsat olardi.

Hunarmandlar o'z uyushmalariga ega edilar. Bu uyushmalar hunarmandlarning faoliyatini tartibga solib turardi. Shu yo'l bilan ularning manfaatini himoya ham qilardi. Uyushma boshlig'i xonning xazina siyosatini o'tkazuvchi shaxs ham hisoblanardi. Xiva ustalarining juda oz qismi xususiy ustaxona — do'koniga ega edi. Hunarmand o'z uyida ham do'kon ochishi mumkin edi. Ko'pchilik hunarmandlar xonga va boshqa boylarga tegishli do'konlarni

³⁹ Sa'diyev A. Maktabda tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent. "ituvchi", 1988.

ijaraga olib mehnat qilishardi. Ayrim hunarmandlar buyurtma asosida ham ishlardi.

XIX asr oxirida Muhammad Raximxon Soniy hukmronligi davridan boshlab birmuncha siyosiy barqarorlik o'rnatildi. Bu omil Xiva shahrida san'at va madaniyatning rivoji va shahar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, 1852-yilga kelib Xiva shahrida qayta tiklash ishlari tugallangan bo'lsa, XX asr boshlarida u yangicha an'analar bilan boyidi.

Qayta tiklash ishlaridan tashqari yangi me'moriy obidalar ham qurildi. Masalan, 1865- yilda Sherg'ozixon va Muhammad Amin madrasalari bunyod etildi. XIX asr boshlarida Xiva xonligi poytaxti yirik qurilish maydoniga aylandi. Xon farmoyishi bilan karvonsaroy, usti yopiq bozor va ular oralig'ida 1834- yilda Olloqulixon madrasasi qurilishi tugallandi.

1842- yilda Muhammad Yoqub mehtar rahbarligida Xiva atrofida 6 km uzunlikdagi mustahkam shahar-qal'a devori va uning darvozasi qurib tugallandi. Natijada, xonning shahar tashqarisidagi 2 saroyi ham shahar ichiga kirdi. o'sha paytdan boshlab shahar hududining bu qismi Dishan qal'a - Tashqi shahar (qal'a) deb nomlana boshlangan⁴⁰.

Xivaning kichik xalqali qal'a devori bilan o'ralgan qismi Ichan qal'a - Ichki shahar (qal'a) deb atalgan. Xivada XIX asr birinchi yarmiga kelganda jami 2 xon saroyi, 17 masjid, 22 madrasa mavjud bo'lgan.

Ichan qal'a bobolarimizdan qolgan o'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlikdir. U ming gumbaz shahri nomi bilan mashhur. Ichan qal'a Xiva shahrining ichki qal'a (Shahrison) qismidir.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ham avvalgi asrlarda mavjud bo'lgan hunarmandchilikning har xil turlari yanada rivojlandi. An'anaga ko'ra, shaharning ma'naviy markazi uning katta, yoki juma masjidi sanalar edi. Masjidni rejalashtirish zahirida X—XII asrlarda yaratilgan konstruksiyalar yotgan, deb hisoblashadi. Ichan-qal'adagi Juma masjidi ham XVIII asrning oxirida qayta

⁴⁰ Abulg'ozzi Bahodirxon. Shajarayi tarokima. – Toshkent: Cho'lpon, 1995.

qurilgan, lekin u Sharqning klassik inshootlarining qator xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan.

Xiva me'morlari O'rta Osiyoda qadimdan qo'llanib kelgan uslub — inshootlarni ro'parama-ro'para qurish uslubi (V«qushV»)dan foydalanishgan. Masalan, Olloqulixon madrasasi bilan Kutlug' Murod Inoq madrasasi, Sherg'ozixon madarasasi bilan Pahlavon Mahmud maqbarasi shu uslubda qurilgan. Ichan qal'a me'morligining Yana bir o'ziga xos xususiyati binolarning alohida ansambl holida qurilganligi. Bu o'ziga xos bir qavatli binoning old kirish portallari, gumbazlari va dumaloq arkalari yo'q, u eramizning X- XVII asrlarida yaratilgan 213 dona yog'och naqshinkor ustunlarga tayanadigan yassi tomli ulkan zaldir. Ularning o'lchamlari, shakllari va bezaklari turlicha bo'lib, aynan ular masjidning yuksak badiiy qiymatini namoyon etadi. Olimlarning fikricha, ushbu xususiyatlarning barchasi bu masjidni Arabistondagi qadimiy masjidlarga yaqinlashtiradi.

Me'morchilikning yuksalishi kulolchilikda ham o'z ifodasini topdi. Kulollar faqat alohida-alohida buyumlar tayyorlabgina qolmasdan, bir necha yuzlab lagan, tovoq va kosalardan iborat butun bir to'y marosimini o'tkazishga yetadigan to'y majmualarini ham tayyorlaganlar⁴¹.

Alohida tantanalar uchun maxsus to'y va podshoyi tovoqlar ham tayyorlangan. XIX asrning oxirlariga oid manbalarda Xivada zaigarlik hunari mahorati yetakchi hunarlar qatorida tilga olib o'tilgan. Xivaning bosh taqinchog'i - jig'a o'rta Osiyoning boshqa mintaqalariga ham keng tarqalgan. Isirg'alar feruza va marjonlar, bilaguzuklar esa toshlar bilan bezatilgan. Bilaguzuklar har birining og'irligi 300 grammgacha bo'lgan.

XX asr boshlarida Xorazm amaliy san'ati ravojida gilamdo'zlik sohasi ham alohida o'rin tutadi. Xiva gilamlari to'qilishi va naqshinkorligiga ko'ra Eron va Buxoro gilamlaridan ancha farq qilgan. Bunda gilamlarning ikki qatlik tizimdan tuzilganligi va jimjimador bezaklarning o'ta yorqinligi alohida ahamiyatga ega.

⁴¹ O'zbekiston: milliy istiqlof, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. — T.: O'zbekiston, 1996.

Hozirgi davrda ham gilam ustida ishlayotgan rassomlar XX asrning birinchi yarmida yuksak darajada bolgan Xorazm amaliy bezagi va sanatining urf analariga tayanadilar.

XIX asr oxirlarida Xivada matoga gul bosish sarfati o'zining kulrang uyg'unligi va mayda gullari bilan o'rta Osiyoning boshqa gul bosish markazlaridan farq qilib turadi.

Xiva shahrida hunarmandchilikning yog'och o'ymakorligi, badiiy to'qimachilik, gilamchilik, kashtachilik, naqqoshlik kabi o'nlab turlari ham mavjud bo'lgan. XIX asrda Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi xonlikda oldingi o'rinda turadi. U o'z badiiy yuksakligi bilan ajralib turardi. Bu o'rinda Olloqulixon saroyidagi Toshhovli ayvon ustunlari majmuyi o'zining ko'rkamligi bilan ajralib turadi.

Xivada qo'lyozma kitob san'atining tarixi ham chuqur ildizga ega. Jumladan XVI asrda Xiva xonlari saroy kutubxonalarida xattotlik, husnixat maktabi shakllandi. Mashhur xattot Hamadoniy 1556-yilda Eshmuhammadxonga „Shohnoma“ni miniaturalar uchun ochiq joy qoldirib ko'chirib berd⁴²i.

XVII - XVIII asrlarda Xivada Muhammad Yusuf Rojiiy, Bobojon Sanoiy, Muhammad Rizo Oxund kabi qator usta xattotlar yashab, mehnat qilganlar. Ular she'riy asarlar, tarjima va tarixiy kitoblarni ko'chirganlar. Har bir kitobni bezashda bir necha soha ustalari ishtirok etganlar. Bular — qog'oz qirquvchi, kotib-xattot, muzahhib, lavvoh, lavha chizuvchilar, miniaturachi rassom va sahhoqlar edilar. Xiva qo'lyozmalarida Buxoro qo'lyozmasidan farqli o'laroq, mundarija manzarali qilib bezatilmagan. XX asr boshlarida Xivada qo'lyozma kitob san'atining toshbosma usuli ham rivoj topdi. Uning ixtirochisi Otajon Abdalov edi.

XIX asr o'rtalarida o'ymakori eshik va ustunlar ustasi Polvon Abdusattor o'g'lining nomi ayniqsa shuhrat qozondi. Xiva shahri ayni paytda XX asr boshlarigacha xonlikda yagona shoyi to'qish markazi bo'lib qoldi.

⁴² Ogahiy asarlarining tavsifi (katalog). – T., 1986.

XX asr boshlarida bunyod etilgan Nurillaboy masjidi va Bobooxun madrasalari qurilishidagi o'ziga xos uslublar bu paytda Yevropa tipiga xos ko'rinishlarning ham kirib kelganligidan dalolat beradi. Bu paytda Xiva amaliy bezak san'atidagi jimjimador nozik bezaklar qo'llanishi davom etsada, endi kungarodor peshtoqlarga naqsh berish kamayadi. Biroq, imoratlardagi ayvonli ko'rinish saqlanib qolaveradi. Bu holat Xorazm vohasining tabiiy sharoiti bilan ham bog'liq⁴³.

Shunday qilib, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xiva xonligida avvalgi asrlarda mavjud bo'lgan xalq amaliy san'ati – hunarmandchilikning har xil turlari yanada rivojlandi. Bu san'at namunalarida ko'plab innovasiyalarni kuzatish mumkin. Bu holat Xorazm vohasiga shiddat bilan kirib kelgan Yevropa (rus) madaniyatining ta'sirida edi.

⁴³ Sa'diyev A. Maktabda tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent. "ituvchi", 1988.

2.3. XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA SAN'AT VA MADANIYAT MAVZUSINI O'RGANISHNING TAJRIBA SINOV ISHI – YANGI PEDOGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH

XX asr boshlarida xiva xonligida san'at va madaniyat mavzusini o'qitishning yangi pedagogik texnologiya vositalaridan klaster usulidan o'qitishning ishlanmasini keltirmoqchimiz.

Klaster – (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq, o'ylash va shaxsiy fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodi aniq obyektga yunaltirilmagan fikrlash shakli sinaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'lik ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Stil va Stil g'oyasiga muvofik, ishlab chiqilgan "Klaster" metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanishi mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Kushonlar davrida madaniy hayot mavzusini o'qitishda "Klaster" metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi.

1-shakl

"Klaster" metodi

Nimaniki o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizning sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring. Belgilangan vaqt nixoyasiga yetmagunicha, yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tug'ilguniga qadar davom ettiring. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq; yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik bog'liklikni ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang

2-shakl. "Klaster" metodining qoidalari

"Qarorlar shajarasi" ("Qarorlar qabul qilish")metodi

"Qarorlar shajarasi" metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir Qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta taxlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvlar, Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bor taxlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

XX asr boshlarida Xiva xonligida san'at va madaniyat mavzusi o'rganishda guruh o'quvchilari ishtirokida qo'llaniladigan "Qarorlar shajarasi" bir necha un nafar o'quvchilarning bilimlarini darajasini aniqlash ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muayyan muammo yuzasida oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o'quvchilar tomonida bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal taxlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to'ldiradilar (yoki ushbu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadilar):

"Tajriba asosida o'qitish sikli" (D. Kolb g'oyasi) Metodi

Mazkur metod quyidagi to'rt omil asosida ko'riladi: Reflektiv kuzatish, Abstrakt xulosalash (konseptuallash), Tajriba vositasida o'qitish sikli, Faol tajriba olib, borishga tayyorlanish, Aniq tajriba o'tkazish

3-shakl. "Tajriba vositasida o'qitish sikli" metodining asosiy omillari

Yuqorida qayd etilgan omillarning har biri muayyan shior (g'oya)ga asoslanadi. Chunonchi:

1. O'quvchilar uchun mashq (topshirik)lar mazmunini tanqidiy o'rganish va ular ustida fikr yuritish imkonini beruvchi sharoitni yarat (reflektiv kuzatish);
2. o'quvchilarga zarur nazariy bilimlarni berish;
3. Muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarni umulashtirish va xulosalash; uchun sharoit yaratish (abstrakt xulosalash konseptuallash);
4. o'quvchilarga mo'qammal shakllangan, ayni vaqtda yana bir bor tekshirib chiqilishi lozim bo'lgan mashq (topshirik)larni ishlab chiqish imkonini berish (faol tajriba olib borishga tayyorlanish);
5. yakuniy xulosani shaxsiy tajribadan o'tkaz va faoliyatda undan foydalanish (aniq tajriba o'tkazish).

"Qora quti" metodi

Ta'lim jarayonida mazkur metodni qo'llashdan maqsad o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarda boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'quvchilar juftlikka biriktiriladilar;

juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so'zlar, sanalar, rakamlar, belgilar va x-k.)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;

- o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;

topshiriqni to'g'ri bajargan guruhning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi; o'quvchilar yozuv taxtasida qayd

etilgan fikrni sharxlaydilar (tayanch so'zlar, sanalar, rakamlar, belgilar qanday ma'noni anglatishini aytadilar);

- to'g'ri javob bergan o'quvchi o'qituvchi rolni bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi shakl, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o'qituvchi yordamida topshirikning bajarilishini tekshiradi. "Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi,...) ortikcha" metodi

O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

- har xil bo'lgan tizimdan mavzuga ta'lluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita,...) tushunchaning o'rin olishiga erishish;

o'quvchilarga mavzuga ta'lluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharxlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida, o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liklikni asoslashlarini talab etish lozim). Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liklikni ko'rsata va asoslay olish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay olish, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy muloxazalarini o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

"3/3" ("4/4", "5/5",...) metodi

Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning mo'qobili hisoblanib, o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan taxliliy muloxaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko'ra o'qituvchi mavzu (yoki bo'lim, bob)

yuzasidan uchta (to'rtta, beshta,...) bo'lgan va noo'rin qo'llanilgan tushunchalar (so'zlar, belgilar, tasvirlar va boshqalar)dan iborat tizimni shakllantiradi. O'quvchilar ushbu tizimdan mavzu (bo'lim, bob)ga ta'alluqli bo'lmagan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metodni qo'llashsa quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzu (bo'lim, bob)ga oid va oid bulmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;

- o'quvchilar mavzu (bo'lim, bob)ga oid bo'lgan va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;

- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar. Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar

tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

“Oq va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash” metodi

O'quvchilar bilan ommaviy va guruh, shaklida ishlashda ushbu metodni qo'llash nihoyatda qulay. Metoddan mashg'ulotlar so'ngida mavzuni mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foydalanish mumkin. Metod quyidagi harakatlarni tashkil etish asosida qo'llaniladi:

- o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuning mohiyatni mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi "yadro" tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus krplama bilan berkitiladi);

- har bir guruhga maxsus kartochkalarning alohida majmuasi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan mantiliy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;

- guruhlar tomonidan topshiriq, bajarilib bo'lingach, kartochkalarning orqa tomoni o'giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi.

Yuqorida bayon etilgan interaktiv metodlar o'quvchini yakka tartibda, juftlikda, kichiq guruhlarda, katta guruhlarda ishlash, fikr yuritish, o'z qarashlarini himoya qila olish, tanqidiy fikrlash, ko'nikma va malakalarini oshirish imkoniga ega bo'ladilar.

Interfaol darslarni tashkil etish

Reja:

1. Interfaol darslarni tashkil etish.
2. O'quv bilim faoliyatini guruhlarda tashkil etish.
3. Trening darslari va uni samarali o'tkazish.

1. Dars konsepsiyasini rejalashtirishga tizimli yondashuv.
2. Darsning maqsadini belgilash.
3. Dars vazifasini aniqlash.
4. Dars maqsadi va vazifalarining farqini aniq; belgilash.
5. Darsdan kutilayotgan natijalar.
6. Xulosalar chiqarishni oldindan rejalashtirish darsning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi.

Interfaol darslarni tashkil etishda quyidagi bosqichlar tavsiya etiladi

1. Oriyentir. O'yin ishtirokchilari va ekspertlarni tayyorlash bosqichi. O'quv jarayonining ish rejasi o'qituvchi tomonidan taklif etiladi. O'quvchilar bilan hamkorlikda mashg'ulotning maqsad va vazifalari aniqlanadi. O'quv jarayoni muammosi shakllantiriladi. O'quv jarayonida kechadigan immitasiya, o'yin qoidalari, umumishning borishi aytiladi, o'quvchiga o'quv jarayoni materiali paketi tarqatiladi.

2. O'quv jarayoniga borishga tayyorgarlik. O'quv materiallari, vaziyatlar, instro'qsiya va boshqa paket hujjatlari bilan tanishish. O'yin qoidalari tablosi tuziladi. Unga o'yin senariysi, o'yin vazifalari, qoidalari, o'yin ketma-ketligi, olinadigan natijalar aks ettiriladi.

O`yinning borish jarayoni aks ettiriladi. O`yin jarayonini o`zgartirish, unga chetdan aralashish man etiladi. Faqatgina jarayonni olish borishgina ayrim korektiravkalarni kiritish mumkin. O`yin belgilanganda o`qituvchi unga aralashmay, uni kuzatib, boshqarib boradi.

Uning asosiy vazifasi muhokamani tashkil etish, o`yinni kuzatib turish, natijalarni, olinayotgan fikr-muloxazalarni hisoblash, ishtirokchilarning savollariga javob berish.

3. O`tkazilgan o`yin muhokamasi - O`tkazilgan o`yin jarayonini taxlil etish, muhokama etish, baholashdan iborat. O`qituvchi yakuniy muhokamani o`tkazadi. Muhokamada ishtirokchi va ekspertlar fikr almashadilar, o`z pozitsiyalarini himoya qiladilar, taassurotlarni tug`ilgan muammo va fikrlarni bildiradilar.

Yuqoridagi axborotlardan ma`lum bo`ldiki interfaol holatda kechgan ishchalik o`yinlarida; o`qituvchi-o`quvchi, o`qituvchi-sinf, o`quvchi-sinf, o`quvchi-o`quvchi, guruh-guruhlar orasida o`zaro muloqotlar bo`lib o`tishi orqali o`quv mazmuni o`zlashtiriladi.

Interfaol usulda ish yuritmoqchi bo`lgan o`qituvchilarga shuni eslatmoq mumkinki, yangicha ishlash uchun faqatgina maqola, adabiyotlar o`qishning o`zi kamlik qiladi. Buning uchun, ya`ni o`qituvchi o`z faoliyatida interfaol metodlarni qo`llashi uchun, u shaxsan o`zi ishchanlik o`yinlari, aqliy hujum, munozara, debatlarida qatnashib, o`zi tajribadan o`tkazadi, bu ishga shaxsiy hissasini qo`shib boradi.

Buning uchun u interfaol darslarni o`tkazishning quyidagi qoidalarini bilib, o`zlashtirib, amalga kiritishi kerak.

Birinchidan. Interfaol mashg`ulotlarga barcha ishtirokchilar (o`quvchilar) jalb etilishi talab etiladi. Bunda shunday texnologiyalar tanlanishi kerakki, ish jarayonida barcha ishtirokchilarning ishtiroki yoki muhokamasi ta`minlansin.

Ikkinchidan. Mashg`ulotga ishtirok etishni psixologik tayyorlash zarur. Darsda ishtirok etuvchilar jarayonga kirishib ketishga tayyor emasligini hisobga olmoq kerak. Yangi tashkil etilayotgan interfaol darslarda ulardagi xadiksirash,

tortinchoqlik, indamaslik holatlari darsning faol kechishi, ichki imkoniyatlarni ishga solishga to'sqinlik qilishi kuzatiladi.

Uchinchidan, o'quvchilarni yangi texnologiyalarni ko'plab joriy etish bilan toliqtirmaslik. Ishtirokchi imkoniyati, yangi texnologiya sifati bir-biriga mos kelgani ma'qul. Bir guruhda ishtirokchilar soni 30 kishidan oshib ketmasligi kerak. Shunday sharoitdagina kichik guruhlarda ishlash, fikrni erkin bayon etish, muammolar yechimini topish oson kechadi.

To'rtinchidan. Mashg'ulot olib boriladigan xonalarni tayyorlashga alohida e'tibor berish kerak. Sinf shunday tayyorlanishi kerakki, kichiq va katta guruh bilan ishlanganda, ular erkin harakatlansinlar. Boshqacha aytganda o'quvchiga qulay muhit yaratilishi kerak. Ayniqsa, o'quvchining bir-biri bilan muloqotda bo'yin egib o'tirishi noqulaylik keltirib chiqaradi. Stollarni 4-6 kishilik qilib qo'yish, guruh a'zolarining bir-birlariga qarab o'tirishi, ko'rib, fikrlashuvga qulay muhit yaratilishi yaxshi natijalar beradi.

Beshinchidan. Ishchanlik o'yinlarini olib borishdan oldindan uning reglamenti, ketma-ketligiga rioya qilish kerak. Unga qat'iy rioya qilishni oldindan kelishib olgan ma'qul, Har bir ishtirokchi har qanday fikrlash, nuqtai nazarga chidamli bo'lishi, oxirigacha eshitishi, tanqid qilmasligi kerak.

Har bir ishtirokchining so'z erkinligiga hurmat bilan qarash, shaxs hurmatini saqlash.

Oltinchidan. Ishtirokchilarning guruhlarga bo'linishlariga diqqat-e'tibor bilan qarash. Avvalo guruhlarni shakllantirish erkin, xohish-istaklar asosida kechgani ma'qul. Keyinchalik guruhlarni tasodifiy shakllantirishga o'tilgani ma'qul.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki interfaol usullar birdaniga ko'pgina vazifalarni bajara olishga imkon beradi.

Eng muhimi u o'quvchining kommunikativ bilim, tushuncha, malakalarini oshiradi. Ularni hamkorlik, hamjihatlik, do'stona munosabatlarda ishlashini ta'minlaydi. Ayniqsa bir-birlarini eshitish, fikrini bayon etish, o'zaro hurmatga undaydi.

XULOSA

Xorazm xalqlari madaniyati tarixida XX asr boshlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xiva — tarixiy qurilish, butunligicha bino va inshootlar, aslida ochiq havodagi butun bir shahar amalda tarixiy holida saqlanib qolgan dunyoning bir nechtagina shaharlaridan biridir. Xiva shahrining monumental inshootlari go'yoki qaytadan barpo etilgan shaharni hosil qilgan bo'lib, u bizni bor-yo'g'i ikki-uch avlod ustalarning hayoti davomida qurilishi tezligi bilan hayratda qoldiradi. Lekin boshqa sharoitlarda halokatli bo'ladigan holatlar – kichik yer bo'laklaridagi tasodifiy qurilishlar, o'ta siqiq sharoitlar va yer kamligi bu yerda me'morchilik inshootlarining benihoya go'zalligi, nafisligi va turli-tumanligiga sabab bo'ldi.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xiva xonligida madaniy hayot gullab yashnadi. Bu avvalo ilm-fan va madaniyat homiysi bo'lgan, Muhammad Raximxon Soniy – Firuz faoliyati bilan bog'liq. Bu paytda nafaqat ma'naviy madaniyat bilan bog'liq ilmlar; adabiyot, tarix, musiqa ilmi ravnaq topdi. Balki bu paytda xalq amaliy san'ati – hunarmandchilikning har xil turlari yanada rivojlandi. Bu san'at namunalarida ko'plab yangi yutuqlarga erishildi. Ularni yasash noyob san'at darajasiga ko'tarildi. Bu jarayonga Xorazm vohasiga shiddat bilan kirib kelgan Yevropa (rus) madaniyati ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda edi.

Xiva xonligi tarixiy manbalarida hunarmandchilikning 27 sohasi qayd etilgan. Amalda esa, ular bundan-da ko'p bo'lgan. Hunarmand malakali usta bo'lishi uchun ko'p yil mashaqqatli mehnat qilgan. Odatda, usta o'z kasbini to'ng'ich o'g'liga o'rgatgan. Ayrim hollarda, ishda qo'shimcha kishining mehnati talab qilinsa, chetdan ham shogirdlar qabul qilingan. Shogirdga kasb o'rgatish shartlari va muddatlari yozma shartnomada rasmiylashtirilgan. Shogird hunarmand ustadan oq fотиha olib, o'zining alohida ustaxonasini ochishdan avval hunarmand ustalar oldida o'z mahoratini namoyish etishi kerak bo'lgan. Sinovdan o'tgan shogird shu tariqa ustaxona ochishga ruxsat olardi.

Hunarmandlar o'z uyushmalariga ega edilar. Bu uyushmalar hunarmandlarning faoliyatini tartibga solib turardi. Shu yo'l bilan ularning

manfaatini himoya ham qilardi. Uyushma boshlig'i xonning xazina siyosatini o'tkazuvchi shaxs ham hisoblanardi. Xiva ustalarining juda oz qismi xususiy ustaxona — do'koniga ega edi. Hunarmand o'z uyida ham do'kon ochishi mumkin edi. Ko'pchilik hunarmandlar xonga va boshqa boylarga tegishli do'konlarni ijaraga olib mehnat qilishardi. Ayrim hunarmandlar buyurtma asosida ham ishlardi.

XIX asr oxirida Xiva Xonligida siyosiy barqarorlik o'rnatildi. Bu omil Xiva shahrida san'at va madaniyatning rivoji va shahar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, 1852- yilga kelib Xiva shahrida qayta tiklash ishlari tugallangan bo'lsa, XX asr boshlarida u yangicha an'analar bilan boyidi.

Qayta tiklash ishlaridan tashqari yangi me'moriy obidalar ham qurildi. Masalan, 1865- yilda Sherg'ozixon va Muhammad Amin madrasalari bunyod etildi. XIX asr boshlarida Xiva xonligi poytaxti yirik qurilish maydoniga aylandi. Xon farmoyishi bilan karvonsaroy, usti yopiq bozor va ular oralig'ida 1834- yilda Olloqulixon madrasasi qurilishi tugallandi.

Shunday noyob madaniyat namunalarini Xiva shahri ham o'z bag'rida saqlab kelmoqda Xiva — muzey-shahar, lekin Rim shahri kabi aholi yashaydigan shahardir. Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, shahar kamida 2500 yoshga kirgan. Bularning hammasi YUNESKO tashkilotiga Xivani qo'riqxona ahamiyatidagi shahar deb e'lon qilishga, shaharning ichki qismi bo'lgan Ichan-qal'ani esa jahon ahamiyatidagi tarixiy yodgorlik deb e'tirof etishga asos bergan. «Avesto» kitobi Xorazm to'g'risida tarixiy ma'lumotlar beradi. «Tarixning otasi» deb sanalgan Gerodot Xorazm va xorazmliklar to'g'risida gapirib o'tgan edi. Beruniy esa Xorazmdagi qadimiy dehqonchilik to'g'risida hikoya qilgan.

Sobiq Sho'ro tuzumi davrida ko'pgina tarixchilar tomonidan, O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyatiga nisbatan sho'rolar davrida noxolis yondoshildi. Istiqlol yillarida ushbu fikrlarning asossiz ekanligi, bu o'lkada juda qadimdan bizning ajdodlarimiz, yashab yuksak madaniyat namunalarini yaratishganligini isbotlandi.

Xorazmning erksevar xalqi Elbarsxon yetakchiligida 1511—1512 yillarda Eron qo'shinlarini mamlakatdan butunlay quvib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Shu tariqa 1511-yilda Xorazm mustaqilligi tiklandi va bu davlat endi Xiva xonligi deb atala boshlandi. Bu davlat asoschisi ham shayboniylar vakillari bo'ldi. Xiva xonligida shayboniylar hukmronligi 1770- yilgacha davom etdi.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ham avvalgi asrlarda mavjud bo'lgan hunarmandchilikning har xil turlari yanada rivojlandi. An'anaga ko'ra, shaharning ma'naviy markazi uning katta, yoki juma masjidi sanalar edi. Masjidni rejalashtirish zamirida X—XII asrlarda yaratilgan konstruksiyalar yotgan, deb hisoblashadi. Ichan-qal'adagi Juma masjidi ham XVIII asrning oxirida qayta qurilgan, lekin u Sharqning klassik inshootlarining qator xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan.

Xiva me'morlari O'rta Osiyoda qadimdan qo'llanib kelgan uslub — inshootlarni ro'parama-ro'para qurish uslubi (V«qushV»)dan foydalanishgan. Masalan, Olloqulixon madrasasi bilan Kutlug' Murod Inoq madrasasi, Sherg'ozixon madarasasi bilan Pahlavon Mahmud maqbarasi shu uslubda qurilgan. Ichan qal'a me'morligining Yana bir o'ziga xos xususiyati binolarning alohida ansambl holida qurilganligi. Bu o'ziga xos bir qavatli binoning old kirish portallari, gumbazlari va dumaloq arkalari yo'q, u eramizning X- XVII asrlarida yaratilgan 213 dona yog'och naqshinkor ustunlarga tayanadigan yassi tomli ulkan zaldir. Ularning o'lchamlari, shakllari va bezaklari turlicha bo'lib, aynan ular masjidning yuksak badiiy qiymatini namoyon etadi. Olimlarning fikricha, ushbu xususiyatlarning barchasi bu masjidni Arabistondagi qadimiy masjidlarga yaqinlashtiradi.

Me'morchilikning yuksalishi kulolchilikda ham o'z ifodasini topdi. Kulollar faqat alohida-alohida buyumlar tayyorlabgina qolmasdan, bir necha yuzlab lagan, tovoq va kosalardan iborat butun bir to'y marosimini o'tkazishga yetadigan to'y majmualarini ham tayyorlaganlar.

Alohida tantanalar uchun maxsus to'y va podshoyi tovoqlar ham tayyorlangan.

XIX asrning oxirlariga oid manbalarda Xivada zaigarlik hunari mahorati yetakchi hunarlar qatorida tilga olib o'tilgan. Xivaning bosh taqinchog'i - jig'a o'rta Osiyoning boshqa mintaqalariga ham keng tarqalgan. Isirg'alar feruza va marjonlar, bilaguzuklar esa toshlar bilan bezatilgan. Bilaguzuklar har birining og'irligi 300 grammgacha bo'lgan.

Xivada Muhammad Yusuf Rojiiy, Bobojon Sanoiy, Muhammad Rizo Oxund kabi qator usta xattotlar yashab, mehnat qilganlar. Ular she'riy asarlar, tarjima va tarixiy kitoblarni ko'chirganlar. Har bir kitobni bezashda bir necha soha ustalari ishtirok etganlar. Bular — qog'oz qirquvchi, kotib-xattot, muzahhib, lavvoh, lavha chizuvchilar, miniaturachi rassom va sahhoflar edilar. Xiva qo'lyozmalarida Buxoro qo'lyozmasidan farqli o'laroq, mundarija manzarali qilib bezatilmagan.

XIX asr o'rtalarida o'ymakori eshik va ustunlar ustasi Polvon Abdusattor o'g'lining nomi ayniqsa shuhrat qozondi. Xiva shahri ayni paytda XX asr boshlarigacha xonlikda yagona shoyi to'qish markazi bo'lib qoldi. Hozirgi davrda ham gilam ustida ishlayotgan rassomlar XX asrning birinchi yarmida yuksak darajada bolgan Xorazm amaliy bezagi va sarfati arf analariga tayanadilar.

XIX asr oxirlarida Xivada matoga gul bosish sarfati o'zining kulrang uyg'unligi va mayda gullari bilan O'rta Osiyoning boshqa gul bosish markazlaridan farq qilib turadi. XX asr boshlarida Xivada qo'lyozma kitob san'atining toshbosma usuli ham rivoj topdi. Uning ixtirochisi Otajon Abdalov edi.

XIX asr o'rtalarida o'ymakori eshik va ustunlar ustasi Polvon Abdusattor o'g'lining nomi ayniqsa shuhrat qozondi. Xiva shahri ayni paytda XX asr boshlarigacha xonlikda yagona shoyi to'qish markazi bo'lib qoldi.

XX asr boshlarida bunyod etilgan Nurillaboy masjidi va Bobooxun madrasalari qurilishidagi o'ziga xos uslublar bu paytda Yevropa tipiga xos ko'rinishlarning ham kirib kelganligidan dalolat beradi. Bu paytda Xiva amaliy bezak san'atidagi jimjimador nozik bezaklar qo'llanishi davom etsada, endi kungarodor peshtoqlarga naqsh berish kamayadi. Biroq, imoratlardagi ayvonli ko'rinish saqlanib qolaveradi. Bu holat Xorazm vohasining tabiiy sharoiti bilan ham bog'liq.

Shunday qilib, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xiva xonligida avvalgi asrlarda mavjud bo'lgan xalq amaliy san'ati – hunarmandchilikning har xil turlari yanada rivojlandi. Bu san'at namunalarida ko'plab innovatsiyalarni kuzatish mumkin. Bu holat Xorazm vohasiga shiddat bilan kirib kelgan Yevropa (rus) madaniyatining ta'sirida edi.

XX asr boshlarida Xiva xonligida san'at va madaniyat mavzusi o'rganishda esa biz ko'proq guruh o'quvchilari ishtirokida qo'llaniladigan "Qarorlar shajarasi" usuliga tayanishni ma'qul topdik. Bu usul bir necha o'n nafar o'quvchilarning bilimlarini darajasini aniqlash ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muayyan muammo yuzasida oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o'quvchilar tomonida bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomahbul jihatlarini mufassal taxlil etish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim jarayonida mazkur metodni qo'llashdan maqsad o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlar boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A.. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.
2. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida ... T., O'zbekiston, 1997.
4. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q .T., 1998,
5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch T., ” Ma'naviyat” 2008.
6. Abulg'ozi Bahodirxon. Shajarayi tarokima. – Toshkent: Cho'lpon, 1995.
7. Matyakubova M. Xiva xonligi tarixi manbalari (Muhammadrizo Ogahiyning tarixiy asarlarini kodikologik xususiyatlari). Urganch, 2006.
8. Ogahiy. Riyoz ud-davla. // Qo'lyozma. O'zFA ShI. – № 5364/11. Yana qarang: SVR, VII. – № 5022.
9. Ogahiy. Zubdat ut-tavorix. // Qo'lyozma. O'zFA ShI. – № 821/II. Yana qarang: SVR, VII. – № № 5023, 5024.
10. Ogahiy asarlarining tavsifi (katalog). – T., 1986.
11. Ogahiy. Shohid ul-iqbol. // Qo'lyozma. Rossiya FA QI. – № S572; (Quyida shu asarning tavsifi haqida qarang: Dmitriyeva L.V., Muginov A.M., Muratov S.N. Opisaniye tyurkskix rukopisey Instituta narodov Azii. I.
12. Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi, T., 1999.
13. Xorazm tarixi. Urganch . 2004.
14. O'zbekistonning yangi tarixi. II-kitob. T. 2000
15. Xiva, ili geograficheskoye i statisticheskoye opisaniye Xivinskogo xanstva, sostoyayushyego teper v voyne s Rossiyey, zaimstvovannoye iz raznykh otechestvennykh i inostrannykh pisateley, s izobrajeniyami kostyumov i vida goroda Xivy. M.: 1840. s. 79.
16. Svedeniya o Xivinskom xanstve. Выг. из jur. “Мануфактур и торговля”. 1843. Хмыг. kol. T. 9.
17. Danilevskiy G.I. Opisaniye Xivinskogo xanstva. ZIRGO, 1851. Kn.: 5.

18. Danilevskiy G.I. Opisaniye Xivinskogo xanstva. ZIRGO, 1851. Kn.: 5.
19. Ханыков Ya.V. Poyasnitelnaya zapiska k karte Aralskago Morya i Xivinskogo xanstva, s ix okrestnostyami. SPb., 1851
20. Xiva, ili geograficheskoye i statisticheskoye opisaniye Xivinskogo xanstva, sostoyayushchego teper v voyne s Rossiyei, zaimstvovannoye iz raznykh otechestvennykh i inostrannykh pisateley, s izobrajeniyami kostyumov i vida goroda Xivy. M.: 1840.
21. Tolstov S.P. Kadimgi Xorazm madaniyatini izlab. - T., «Fan», 1964.
22. O'zbekiston adabiyoti va san'ati». 1990 yil 10 avgust.
23. F. Yusupov O'qituvchi individual tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. Xalq ta'limi №5, 2005 yil
24. Yusupov R.K. Tarixni o'qitish uslubi. Samarqand Universitet. 2001 yil
25. Tayloqov N. Xalq ta'limiga Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish ta'lim sifatini oshirishning omili sifatida. Xalq ta'limi. 2005 yil № 5 soni
26. Tolipov Y. Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyaning tadqiqiy
27. asoslari". T., "Fan". 2006.
28. Sa'diyev A. Maktabda tarix ukitish metodikasi. – Toshkent. "Ukituvchi", 1988.
29. INTERNET SAYTLAR:
30. www.ziyouz.net sayti
31. www.ziyoucom.uz sayti
32. www.history.ru sayti
33. www.uz sayti
34. www.wikipediya.com sayti
35. All rights reserved. Copyright © 2013 kitob.uz
Tuzuvchi: Muslim1024@gmail.com & Sharaf Plus

